| <b>I. Yo'ldosh patologiyalari:</b>                         |                |
| <b>1.Yo'ldoshning yallig'lanishli kasalliklari</b>         |                |
| 1.1 desiduit                                               | <b>3</b>       |
| 1.2 villit                                                 | <b>3</b>       |
| 1.3 intervillezit                                          | <b>2</b>       |
| 1.4 xorioamnionit                                          | <b>2</b>       |
| <b>2. Yo'ldoshda qon aylanishining buzilishi</b>           |                |
| 1.2.1 fibrinning vorsinkalar atrofida cho'kishi            | <b>2</b>       |
| 1.2.2 retroplasentar gematoma                              | <b>1</b>       |
| 1.2.3 infarkt                                              | <b>2</b>       |
| 1.2.4 fetal arteriyalar trombozi                           | <b>3</b>       |
| <b>3.Yo'ldoshning joylashgan joyidan barvaqt ko'chishi</b> | <b>47</b>      |
| <b>II. Ona patologiyalari</b>                              |                |
| 2.1prieklampsiya                                           | <b>4</b>       |
| 2.2 qandli diabet                                          | <b>11</b>      |
| 2.3bachadon mushaklarining haddan ortiq kuchli cho'zilishi | <b>98</b>      |
| <b>Jami</b>                                                | <b>178</b>     |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, homiladorlik vaqtida bachadon

mushakklarining haddan ortiq qisqarishi natijasida 98 nafar egizaklar , plasentaning yallig‘lanishli kasalliklari tufayli 10 nafar, yo‘ldoshdaqon aylanishi buzilishlari natijasida 9 nafar va onadagi patologiyalar tufayli 15 nafar egizaklar muddatidan oldin tug‘ilgan.

Tadqiqotga olingan egizaklarning o‘lim sabablari quyidagi jadvalda keltirilgan (2.1.4-jadval).

2.1.4-jadval

**Umumiy va alohida yo‘ldoshli chaqaloqlarning o‘lim sabablari**

| Umumiy yo‘ldoshli                     |                |                                         | Alohida yo‘ldoshli                    |                |                                         |
|---------------------------------------|----------------|-----------------------------------------|---------------------------------------|----------------|-----------------------------------------|
| O‘lim sabablari                       | Egizaklar soni | Yo‘ldosh va ona patologiyalari uchrashi | O‘lim sabablari                       | Egizaklar soni | Yo‘ldosh va ona patologiyalari uchrashi |
| Pnevmonopatiyaning atelektatik shakli | 58             | 48/10                                   | Pnevmonopatiyaning atelektatik shakli | 62             | 27/35                                   |
| Homila ichi infeksiyasi               | 9              | 2/7                                     | Homila ichi infeksiyasi               | 10             | 2/8                                     |
| Tug‘ma nuqsonlar                      | 6              | 5/1                                     | Tug‘ma nuqsonlar                      | 5              | 4/1                                     |
| Tug‘ma pnevmoniya                     | 8              | 2/6                                     | Tug‘ma pnevmoniya                     | 11             | 3/8                                     |
| Tug‘ruq travmasi                      | 5              | 5/0                                     | Tug‘ruq travmasi                      | 4              | 4/0                                     |
| <b>Jami</b>                           | <b>86</b>      | <b>62/24</b>                            |                                       | <b>92</b>      | <b>40/52</b>                            |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, egizaklar o‘limining sabablari umumiy va alohida yo‘ldoshli chaqaloqlarda bo‘lib, pnevmonopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etganlar 67/ 68 %, homila ichi infeksiyasi tufayli 13/11 %, tug‘ma nuqsonlar tufayli vafot etganlar umumiy va alohida yo‘ldoshli egizaklarda teng miqdorda 6,0/5,0 % ni tashkil etadi. Tug‘ma pnevmoniya 8,0/12 % ni, Tug‘ruq travmasidan vafot etgan egizaklar 6,0/4,0 % ni tashkil etadi. Ushbu o‘lim sabablarida umumiy yo‘ldoshli egizaklarda yo‘ldosh patologiyalari 73/27 % nisbatda, alohida yo‘ldoshli egizaklarda 43/57% nisbatda uchraydi.

Homila ichi infeksiyasi bilan tug‘ilgan umumiy va alohida yo‘ldoshli mono va diamniotik egizaklarning miokard qavati tuzilmalaridagi morfometrik ko‘rsatkichlari quyidagi 2.1.5, 2.1.6, 2.1.7, 2.1.8-jadvalda keltirilgan.

2.1.5-jadval

**Homila ichi infeksiyasi bilan tug‘ilgan umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar yuragining miokard qavati tuzilmalarini morfometrik ko‘rsatkichlari**

| No | Xaftalik | Tana vazni | MT       | MSH       | Kardiomi ositlar | QB      | QTD     | QT       | PVB     |
|----|----------|------------|----------|-----------|------------------|---------|---------|----------|---------|
| 1  | 22-      | 500-999    | 65,4±1,1 | 25,2±0,32 | 2,62±0,01        | 2,6±0,2 | 2,2±0,1 | 2,1±0,02 | 4,8±0,1 |

|   |       |             |                    |                     |                     |                   |                     |                    |                    |
|---|-------|-------------|--------------------|---------------------|---------------------|-------------------|---------------------|--------------------|--------------------|
|   | 27    | gr          |                    |                     |                     |                   |                     |                    |                    |
| 2 | 28-31 | 1000-1499 g | 68,12±0,2<br>***   | 28,1±0,41<br>***    | 2,91±0,04<br>***    | 3,0±0,1*<br>**    | 2,8±0,3**<br>*      | 2,42±0,03***       | 5,82±0,3*<br>**    |
| 3 | 32-37 | 1500-1999g  | 70,1±0,6*<br>**^^^ | 30,1±0,52<br>***^^^ | 3,32±0,08<br>***^^^ | 3,5±0,3*<br>**^^^ | 2,91±0,31<br>***^^^ | 2,68±0,1<br>***^^^ | 6,01±0,4*<br>**^^^ |
|   |       | 2000-2499 g | 71,2±0,8*<br>**^^^ | 33,2±0,22<br>***^^^ | 3,52±0,09<br>***^^^ | 3,8±0,2*<br>**^^^ | 2,98±0,2*<br>**^^^  | 2,93±0,2<br>***^^^ | 6,21±0,2*<br>**^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

## 2.1.6-jadval

### Homila ichi infeksiyasi bilan tugʻilgan umumiy yoʻldoshli diamniotikchaqaloqlar yuragining miokard qavati tuzilmalarini morfometrik koʻrsatkichlari

| No | Xaft alik | Tana vazni  | MT                 | MSH                 | Kardiomi ositlar    | QB                | QTD                | QT                 | PVB                |
|----|-----------|-------------|--------------------|---------------------|---------------------|-------------------|--------------------|--------------------|--------------------|
| 1  | 22-27     | 500-999 gr  | 69,4±1,1           | 24,2±0,31           | 2,84±0,07           | 2,3±0,1           | 2,0±0,1            | 2,1±0,02           | 4,3±0,3            |
| 2  | 28-31     | 1000-1499 g | 72,12±0,2<br>***   | 26,1±0,3*<br>**     | 3,01±0,03<br>***    | 2,8±0,2*<br>**    | 2,7±0,3**<br>*     | 2,42±0,03***       | 5,67±0,2*<br>**    |
| 3  | 32-37     | 1500-1999g  | 74,3±0,6*<br>**^^^ | 29,3±0,51<br>***^^^ | 3,44±0,06<br>***^^^ | 3,1±0,4*<br>**^^^ | 2,8±0,2**<br>^^^   | 2,68±0,1<br>***^^^ | 5,86±0,3*<br>**^^^ |
|    |           | 2000-2499 g | 75,7±0,8*<br>**^^^ | 30,1±0,21<br>***^^^ | 3,61±0,02<br>***^^^ | 3,5±0,1*<br>**^^^ | 2,94±0,1*<br>**^^^ | 2,93±0,2<br>***^^^ | 6,10±0,1*<br>**^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

## 2.1.7-jadval

### Homila ichi infeksiyasi bilan tugʻilgan alohida yoʻldoshli monoamniotik egizaklar yuragining miokard qavati tuzilmalarini morfometrik koʻrsatkichlari

| No | Xaft alik | Tana vazni  | MT                 | MSH                 | Kardiomi ositlar    | QB                | QTD                | QT                 | PVB                |
|----|-----------|-------------|--------------------|---------------------|---------------------|-------------------|--------------------|--------------------|--------------------|
| 1  | 22-27     | 500-999 gr  | 68,1±0,1           | 23,2±0,32           | 2,51±0,01           | 2,4±0,3           | 2,0±0,1            | 2,5±0,01           | 4,2±0,1            |
| 2  | 28-31     | 1000-1499 g | 70,2±0,2*<br>**    | 26,1±0,41<br>***    | 2,82±0,04<br>***    | 2,8±0,2*<br>**    | 2,6±0,2**<br>*     | 2,82±0,04***       | 5,61±0,2*<br>**    |
| 3  | 32-37     | 1500-1999g  | 72,0±0,5*<br>**^^^ | 28,1±0,52<br>***^^^ | 3,21±0,08<br>***^^^ | 3,3±0,2*<br>**^^^ | 2,72±0,2*<br>**^^^ | 2,82±0,1<br>***^^^ | 5,97±0,3*<br>**^^^ |
|    |           | 2000-2499 g | 74,2±0,9*<br>**^^^ | 31,2±0,22<br>***^^^ | 3,42±0,09<br>***^^^ | 3,6±0,1*<br>**^^^ | 2,87±0,1*<br>**^^^ | 3,1±0,3*<br>**^^^  | 6,02±0,1*<br>**^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

## 2.1.8-jadval

### Homila ichi infeksiyasi bilan tugʻilgan alohida yoʻldoshli diamniotik chaqaloqlar

### yuragining miokard qavati tuzilmalarini morfometrik ko'rsatkichlari

| № | Xaft alik | Tana vazni  | MT                | MSH              | Kardiomi ositlar  | QB              | QTD             | QT               | PVB              |
|---|-----------|-------------|-------------------|------------------|-------------------|-----------------|-----------------|------------------|------------------|
| 1 | 22-27     | 500-999 gr  | 72,4±1,2          | 20,2±0,2         | 2,73±0,02         | 2,6±0,2         | 1,8±0,22        | 1,81±0,01        | 4,1±0,1          |
| 2 | 28-31     | 1000-1499 g | 73,1±0,4*<br>**   | 24,1±0,4*<br>**  | 2,94±0,03<br>***  | 3,1±0,3*<br>**  | 2,4±0,21*<br>** | 2,33±0,01***     | 5,56±0,3*<br>**  |
| 3 | 32-37     | 1500-1999g  | 76,2±0,2*<br>**^  | 27,3±0,3*<br>**^ | 3,14±0,07<br>***^ | 3,6±0,8*<br>**^ | 2,6±0,1**<br>^^ | 2,56±0,2<br>***^ | 5,72±0,2*<br>**^ |
|   |           | 2000-2499 g | 78,17±0,3<br>***^ | 28,1±0,1<br>***^ | 3,45±0,08<br>***^ | 3,9±0,2*<br>**^ | 2,8±0,2**<br>^^ | 2,81±0,3<br>***^ | 5,83±0,2*<br>**^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

Tadqiqotimizda 10 nafar bitta tug'ilib vafot etgan chaqaloqlar yuragi nazorat guruhi uchun olindi (2-3-jadval).

#### 2.1.9-jadval

#### Bitta tug'ilgan chaqaloqlarning makroskopik ko'rsatkichlari

| № | Tug'ilish muddati (Xaftalik) | Tana vazni  | Yurakning o'rtacha vazni (gr) | Yurakning umumiy hajmi (sm <sup>3</sup> ) | Chap qorinchaning hajmi (ml) | Chap qorinchaning qalinligi (mm) | Qorinchalar aro to'siqning qalinligi (mm) |
|---|------------------------------|-------------|-------------------------------|-------------------------------------------|------------------------------|----------------------------------|-------------------------------------------|
| 1 | 22-27                        | 500-999 gr  | 20,4±0,8                      | 21,6±0,7                                  | 4,6-8,7±0,3                  | 4,4±0,1                          | 3,6±0,1                                   |
| 2 | 28-31                        | 1000-1499 g | 21,1±0,7                      | 22,4±0,8                                  | 4, 9±0,4                     | 4,6±0,2                          | 3,8±0,20                                  |
| 3 | 32-37                        | 1500-1999g  | 22,4±1,0                      | 23,6±0,9                                  | 5,5-9,6±0,3                  | 4,5±0,4                          | 4,2±0,2                                   |
|   |                              | 2000-2499 g | 23,1±0,9                      | 23,9±0,8                                  | 5,8-9,1±0,2                  | 4,8±0,2                          | 4,4±0,1                                   |

Ushbu jadvalda keltirilgan nazorat guruhidagi (n=10)chaqaloqlarning yuragining makroskopik ko'rsatkichlariga nisbatan tadqiqotimizga olingan (n=178) egizaklarning tug'ilish muddati va egizaklarning tana vazni bo'yicha guruhlariga ajratib olindi.

#### 2.1.10-jadval

#### Bitta tug'ilgan chaqaloqlar yuragining miokard qavati tuzilmalarini morfometrik ko'rsatkichlari

| № | Xaft alik | Tana vazni  | MT        | MSH        | Kardiomi ositlar | QB        | QTD       | QT        | PVB       |
|---|-----------|-------------|-----------|------------|------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 1 | 22-27     | 500-999 gr  | 70,4±1,1  | 21,6±0,41  | 2,41±0,04        | 2,82±0,22 | 1,7±0,12  | 1,78±0,13 | 3,98±0,15 |
| 2 | 28-31     | 1000-1499 g | 74,18±0,8 | 22,82±0,32 | 2,73±0,03        | 3,30±0,20 | 2,5±0,20  | 2,23±0,14 | 5,53±0,25 |
| 3 | 32-37     | 1500-1999g  | 76,9±0,4  | 23,1±0,43  | 3,01±0,06        | 3,91±0,20 | 2,71±0,22 | 2,42±0,11 | 5,66±0,36 |
|   |           | 2000-2499 g | 77,8±0,6  | 23,8±0,41  | 3,22±0,01        | 4,01±0,23 | 2,90±0,21 | 2,64±0,13 | 5,78±0,31 |

Ushbu jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarga nisbatan tadqiqotimizda pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan umumiy va alohida yo'ldoshli

egizaklar yuragining miokard qavati tuzilmalarida morfometrik tadqiqot olib borildi.

## **§ 2.2. Tadqiqot usullari**

Tadqiqotimizga tanlab olingan 2 guruh ob'yektlarda ham miokard tuzilmalarining morfologik va morfometrik jihatlari o'rganildi. Bunda maxsus gistologik tekshiruv uchun material autopsiya jarayonida olingan seksion materiallardan yurakning chap qorinchasi va qorinchalararo to'sikdan 1x1x0,5 sm o'lchamdagi to'qima bo'lakchalari olindi. Olingan to'qima bo'lakchalari avval 10% neytral formalinda qotirildi, spirtli batareya orqali o'tkazildi, parafinli bloklar tayyorlandi. Bloklardan gistologik qirilmalar tayyorlanib gematoksilin va eozin, Van-gizon, Veygert usullari bilan bo'yaldi. Gistologik preparatlar bo'yicha yurak miokard qavatining, kardiomyositlari, mushaklararo bo'shliqlar, turli kalibrli intramural qon tomirlar, tomir ichidagi qonning reologik xususiyatlari va perivaskulyar bo'shliq (PVB) ham o'rganildi. Mushak va qon tomir strukturasini ob'yektiv baholashda morfometrik tekshiruv o'tkazildi. Buning uchun G.G. Avtandilov tomonidan tavsiya etilgan 4 ta kichik kvadratcha (100 ta nuqtadan iborat) nuqtali to'r ishlatildi. Morfometrik o'lchov mikroskopning ob.20xok.10o'lchamida amalga oshirildi. Bunda kardiomyositlarga tushgan nuqtalar, shuningdek PVB va unda joylashgan qon tomirlari soni hisoblandi. Shuningdek kardiomyositlar va qon tomir strukturasining morfometrik jihatlari o'rganish uchun G.G. Avtandilov tomonidan tavsiya etilgan okulyar mikrometrdan foydalanildi.

### **2.2.1. Gematoksilin va eozin bo'yash**

Gistologik kesmalarni bo'yash uchun eng ko'p ishlatiladigan usul hisoblanadi.

Kesmalar xloformda deparafinizatsiya qilinadi, distillangan suvda yuviladi, keyin kesma yuzasiga gematoksilin eritmasi tomizilib 3 daqiqa ushlanadi. Oqar suvda 10 daqiqa davomida yuvilib, 0,2 dan 3 daqiqagacha eozin bilan bo'yaladi. 70° va 96° spirtida suvsizlantirilib, karbol-ksilol va ksiloldan o'tkazilib balzam bilan yopiladi.

*Natija:* hujayralar yadrolari ko'kish-siyoh rangga, sitoplazma -to'q binafsha rangga bo'yaladi.

#### **Vvan-Gizon usulida bo'yash.**

Parafini ketgazilgan kesmalar suvda yuvilib, 3-5 daqiqa Veygert gematoksiliniga qo'yiladi. Ikki marta oqar suvda yuvilgandan keyin 2-3 daqiqa pikrofuksinda bo'yaladi

va darhol 5-15 soniya suvda chayiladi.

Keyin esa 96° spirtga o'tkazilib, qaytadan 1-3 daqiqa spirtda ushlanadi. Kesmalar karbol-ksilol va ksilol bilan ishlov berilib, balzam bilan yopiladi.

*Ushbu bosqichni baholash natijasi:* yadrolar qora rangga, biriktiruvchi to'qima tolalari och-qizil rangga, mushak va elastik tolalar sariq rangga, asab tolalar sariq-kul rangga bo'yaladi.

### **2.2.2. Veygert usulida bo'yash**

Parafini ketkazilgan kesmalar litiyli karminda 10-15 daqiqa bo'yaladi. Kesmalar yuvilmasdan 1% xlorlivodorod kislotaga va 70% spirtga 10 daqiqa o'tkaziladi. Kesmalar suvda va 70% spirtga yuviladi. Keyin rezorsin-fuksinga o'tkaziladi. 1-2 daqiqa distillangan suvda yuviladi. 1% xlorlivolorolning spirtli eritmasida differensirovka qilinadi. Mikroskopda nazorat qilinib boriladi, ya'ni elastik tolalar aniq ko'k rangga bo'yalganda to'xtatiladi.

Natijada yadrolar qizil, elastik tolalar to'q ko'k rangga bo'yaladi.

### **§ 2.3. Statistik usul**

Morfometrik ma'lumotlari statistik ishlovdan o'tkazildi, o'rtacha arifmetik qiymatning nisbiy qiymatlari o'rtacha xatosi ( $M \pm m$ ) va ishonchlik koeffitsiyenti ( $t$ ) aniqlandi.

Ma'lumki, o'rtacha qiymatlarni olish uchun hodisalar kattaligiga (variatsiyalar ketma-ketligiga) qarab ortish yoki kamayish tartibida joylashtirilgan ma'lumotlar qatori tuziladi. Variatsiya variantlar sonidan ( $V$ ) va ularning takrorlanishini bildiruvchi raqamdan ( $R$ ) iborat. Variant ( $V$ ) - o'rganilayotgan materialda ifodalangan miqdor. Takrorlanish chastotasi yoki tezligi ( $R$ ) - tadqiqotlarda har bir variant necha marta uchraganligini ko'rsatadi. Variasion qatorlar uch xil: oddiy, guruhli, intervalli-guruhli. Oddiy variant satrlarida har bir variant ko'pi bilan bir marta paydo bo'ladi. Bir xil kattalikdagi variantlar bir xil kuzatuvlar soni ko'p bo'lganda guruhlarga bo'linadi.

Variatsiyaning o'rtacha qiymati ( $m$ ) standart og'ish ( $\sigma$ ). O'rtacha xato ( $m$ ) bir necha usul bilan aniqlanadi. Eng oddiy variant - bir xil raqam har bir satrda yoki barcha o'zgarishlarda bir martadan ortiq takrorlanmasa, o'rtacha qiymat oddiy arifmetik usul bilan aniqlanadi. Buning uchun oddiy variantlar bir-biriga qo'shiladi va kuzatishlar

yig'indisi raqamga bo'linadi.

O'rtacha arifmetik (2.1):

$$M = \frac{\sum V}{n} \quad (2.1)$$

O'rtacha standart og'ish:

$$\sigma = \pm \frac{\sum d}{n} \quad (2.2)$$

Shuning uchun, kuzatishlar soni 30 dan ortiq bo'lsa, arifmetik o'rtacha xatoni (2.3) o'rtacha hisoblaydi:

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n}} \quad (2.3)$$

Kuzatishlar soni 30 dan kam bo'lgan arifmetikaning o'rtacha xatosi (2.4) quyidagicha aniqlanadi:

$$m = \pm \frac{\sigma}{\sqrt{n-1}} \quad (2.4)$$

bunda: V - qiymat, n - kuzatishlar soni, d - variantning o'rtacha qiymatdan arifmetik farqi.

$$D = V - M \quad (2.5)$$

Shunga asoslanib, o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari aniqlanadi:

$$m_1 = \pm \frac{\sum \sigma_i N_i}{\sum N_i} \quad (2.6)$$

Ni- kuzatishlar soni,  $\sigma_i$  - o'rtacha qiymatni olish uchun arifmetik hisoblashda aniqlangan natijalar soni.

Tadqiqot natijalariga statistik qayta ishlov berishda «Statistica for Windows 7.0» personal kompyuterining amaliy dastur paketidan foydalanilgan holda amalga oshirildi. Gistologik preparatlar «Leica EC3» raqamli kamerasi va Pentium IV kompyuteri bilan bog'langan «Leica GME» mikroskopi yordamida o'rganilgan va suratga olingan. Fotosuratlarni qayta ishlash Windows Professional dasturlari yordamida amalga oshirildi.


### **III BOB. UMUMIY YO‘LDOSHLI MONO VA DIAMNIONLI ERTA TUG‘ILGANEGIZAKLAR MIOKARD TUZILMALARIDAGI MORFOLOGIK VA MORFOMETRIK JIHATLARI**

#### **§ 3.1. Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfologik o‘zgarishlari**

Pnevmonopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar jami 44 nafar (22 juft) bo‘lib, shulardan 59 % o‘g‘il jinsiga, 41% i qiz jinsiga mansub egizaklardir.


Shundan umumiy yo‘ldoshli monoamniotik 22-27 xaftaligacha bo‘lgan muddatlarda tug‘ilgan egizaklarning soni jami 14 nafar bo‘lib, ulardan 8 nafari (57 %) o‘g‘il jinsli egizaklar, 6 nafari (43 %) qiz jinsli tana vazni 500-999 gr bo‘lgan egizaklardir. Tadqiqotimizda tekshiruvga olingan monoamniotik egizaklar yuragi miokard qavatining aksariyat kardiomiositlarining yadrosida kariopiknoz jarayoni, ayrim kardiomiositlarda esa karioreksis holati aniqlanadi. Ko‘ruv maydonidagi yakka holdagi kardiomiositlarda kariolizis rivojlanganligi qayd etiladi. Miokard qavatida mushaklararo kuchsiz shish kuzatiladi (3.1-rasm). Intramiokardial qon tomir bo‘shlig‘idagi eritrositlar aniqlanadi. Ushbu eritrositlarning ba‘zilarining shakli ko‘rinishga ega bo‘lib, bir biridan alohida qo‘shilmagan holatda joylashganligi va ko‘plab eritrositlarning shakli noaniqligi qayd etiladi. Intramiokardial qon tomirlar devori kuchsiz shishganligi va endoteliositlarda kariopiknoz holati kuzatiladi, ayrim endoteliositlarning yadrosi ko‘zga tashlanmaydi.

Shunday qilib, umumiy yo‘ldoshga ega bo‘lgan 22-27 xaftalik muddatgacha tug‘ilgan monoamniotik egizaklarning miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o‘zgarishlar, kardiomiositlarda kariopiknoz, karioreksis va kariolizis ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Intramiokardial qon tomirlar devorida kuchsiz shish va bo‘shlig‘ida shakli noaniq bo‘lgan eritrositlar aniqlanadi.



**3.1- Rasm. Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik (tana vazni 500-999 gr) egizaklar miokard qavatidagi mushaklararo kuchsiz shishinganligi va kardiomiositlar yadrosi kariopiknozi. Gematoksilin-eozinda bo‘yalgan. Ob.40, ok.10**


28-31 xaftaligacha bo‘lgan muddatlarda tug‘ilgan umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklarning soni jami 16 nafar bo‘lib, ulardan 10 nafari (63 %) o‘g‘il jinsli egizaklar, 6 nafari (37 %) qiz jinsli egizaklar bo‘lib, ularning tana vazni o‘rtacha 1000-1499 grammni tashkil etadi. Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik tana vazni kichik bo‘lgan egizaklar yuragi miokard qavatida mushaklararo kuchsiz shish kuzatiladi. Aksariyat kardiomiositlarining yadrosida kariopiknoz jarayoni qayd etilsa, ayrim kardiomiositlar yadrosida karioreksis holati bir qator kardiomiositlarning yadrosida kariolizis rivojlanganligi kuzatiladi. Intramiokardial qon tomir bo‘shlig‘ida kam sonli eritrositlar mavjud bo‘lib, ushbu eritrositlarning ba’zilarining shakli aniq, bir biridan alohida qo‘shilmagan holatda joylashgan, biroq ko‘plab eritrositlarning shakli noaniqligi, bir biriga qo‘shilib ketganligi, ya’ni gemoliz belgilari qayd etiladi. (3.2-rasm). Intramiokardial qon tomirlar devoridaa sezilarli darajadagi shish, endoteliositlar yadrosida kariopiknoz va karioreksis holati, ba’zi endoteliositlarda kariolizis jarayoni kuzatilsa, ayrim endoteliositlarda sitoliz rivojlangan bo‘lib, endoteliositlarning yadrosi aniqlanmaydi.



**3.2-Rasm. Tana vazni kichik bo‘lgan (500-999 gr) monoamniotik egizaklar miokard qavatidagi intramiokardial qon tomirlari bo‘shlig‘idagi ertrositlar gemoliz holati. Gematoksilin-eozinda**

**bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning ma'lum sohalarida mushak tolalarining tolalanishi hamda mayda bo'lakchalarga (fragmentlarga) ajralganligi kuzatiladi. Tolalangan sohadagi kardiomiositlaridagi nekrobiotik o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Intramiokardial qon tomir bo'shlig'idagi eritrositlarning gemoliz holati qayd etiladi. Qon tomirlar devorida shish, va tolalalanish sohalari aniqlanadi. Aksariyat endoteliositlar yadrosida karioreksis va kariolizis jarayoni kuzatiladi. Ayrim endoteliositlarda kariositoliz rivojlanganligi qayd etiladi. Qon tomirning devorining ko'plab sohalarida intima qavatining ko'chib tushgan aniqlanadi (3.3-rasm).

**3.3.-Rasm. Monoamniotik (tana vazni 1500-1999 gr) egizaklar miokard qavatidagi qon tomirlar devoridagi deskvamatsiya holati. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Shunday qilib, umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan 28-31 xaftalik muddatgacha tug'ilgan monoamniotik egizaklarning, miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar, jumladan nekrobiotik jarayonlar jadalroq kechadi. Qon tomirlar devorida nekrotik o'zgarishlarning ustunligi kuzatiladi.


32-37 xaftaligacha bo'lgan muddatlarda tug'ilib pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklarning soni jami 14 nafar bo'lib, ulardan 8 nafari (57,1 %) o'g'il jinsli egizaklar, 6 nafari (42,9 %) qiz jinsli egizaklardir. Ulardan tana vazni o'rtacha 1500-1999 gramm bo'lgan egizalar 6 nafar (3 nafari o'g'il jinsli (50%), 3 nafari qiz jinsli (50%) egizaklar) va tana vazni 2000-2499 grammi egizaklar 8 nafarni (5 nafari o'g'il jinsli (62,5%) va 3 nafari qiz jinsli (37,5%) egizaklar) tashkil etadi. Umumiy yo'ldoshli monoamniotik tana vazni 1500-1999 gramm bo'lgan egizaklar yuragi miokard qavatining aksariyat kardiomiositlarining gepertrofiya belgilari, gipetrofiyalashgan kardiomiosit yadrosida kariopiknoz jarayoni, ayrim kardiomiositlarda esa karioreksis holati aniqlanadi. Mushaklararo shishigan sohalarga yaqin joylashgan kardiomiositlarda kariolizis jarayoniga xos morfologik

o'zgarishlar aniqlanadi. Miokard qavatida mushaklararo shish sohari kuzatiladi (3.4-rasm). Mushaklar oraliqlarida joylashgan qon tomir bo'shlig'idagi siyrak holatda joylashgan eritrositlar bo'lib, eritrositlarning ba'zilarining shakli aniq, konturlari saqlangan holatda, biroq, ko'plab eritrositlarning shakli noaniqligi kuzatiladi. Intramiokardial qon tomirlar devorida kuchli shish va kam sonli endoteliositlarda kariopiknoz holati, aksariyat hujayralarda karioreksis va ayrim endoteliositlarning yadrosi ko'zga tashlanmaydi. Qon tomir intima qavatining ayrim sohalarining ko'chib tushganligi qayd etiladi.



**3.4.-Rasm. Nisbatan tana vazni kichik monoamniotik egizaklar miokard qavatidagi o'zgarishlar (Mushaklar oraliqlaridagi kuchli rivojlangan shish va kariopiknoz. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob. 40, ok. 10**

Tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklarning kardiomiositlarda shish belgilari, yadrosida kariopiknoz holati, ko'plab kardiomiositlarda karioreksis va kariolizis holati kuzatiladi. Ayrim kardiomiositlarning yadrosi aniqlanmaydi (3.5-rasm). Mushaklararo shish kuchli namoyon bo'ladi. Ko'ruv maydoning aksariyat qismida miositlarning tolalanganligi va mushak tolalarining fragmentlarga (mayda bo'lakchalarga) ajralganligi kuzatiladi. Intrakardial qon tomirlar bo'shlig'ida kam sonli eritrositlarning mavjud bo'lib, ularning shakli va konturlari noaniq va gemoliz holatida ekanligi aniqlanadi. Qon tomirlar devori shishgan holatda, aksariyat endoteliositlarda karioreksis va kariolizis jarayoni kuzatiladi. Bo'ylama kesilgan qon tomirlarning ayrim joylari tolalangan, hamda deskavamatsiya holati kuzatiladi.



**3.5-Rasm. Kardiomiositlardagi patomorfologik (kariopiknoz, karioreksis va kariolizis) o'zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Shunday qilib, umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan 32-37 xaftalik muddatgacha tug'ilgan monoamniotik tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarning miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar jadal namoyon bo'ladi, tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklar miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar sustroq, ammo yaqqol namoyon bo'ladi.

### **§ 3.2. Umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfometrik ko'rsatkichlari**

Umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan tug'ilib turlicha muddatgacha yashab pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan monoamniotik tana vazni turlicha bo'lgan egizaklar yuragidagi patomorfologik ko'rsatkichlar tug'ilish muddatlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bunda, mushaklararo shish, qon tomir bo'shlig'i va devorining ulushi, perivaskulyar bo'shliq hamda kardiomiositlarning diametrda o'ziga xos farq-tafovutlar aniqlanadi (3.2.1-jadval).

#### **3.2.1 Jadval**

#### **Umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklar yuragida rivojlangan mushaklararo (MSH) shish va mushak to'qimasi (MT) maydonining morfometrik ko'rsatkichlari (%%)**

| № | Tug'ilish muddati     | Tana vazni   | MT             | MSH            |
|---|-----------------------|--------------|----------------|----------------|
| 1 | <b>22-27 xaftalik</b> | 500-999 gr   | 65,4±0,87      | 19,1±0,44      |
| 2 | <b>28-31 xaftalik</b> | 1000-1499 gr | 67,0±0,54***   | 19,3±0,51***   |
| 3 | <b>32-37 xaftalik</b> | 1500-1999gr  | 68,4±0,87***^^ | 19,1±0,44***^^ |
|   |                       | 2000-2499 gr | 69,1±1,4***^^  | 20,2±0,47***^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, umumiy yo'ldoshli monoamniotik 22-27 xaftalik muddatgacha bo'lgan davrda tug'ilib turli muddatlarda yashab pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan tana vazni 1000-1499 gr bo'lgan

egizaklar miokard qavatida mushak to‘qimasi egallagan maydon o‘rtacha  $65,4 \pm 0,87$  ni, mushaklararo shish egallagan maydon esa,  $19,1 \pm 0,44$  tashkil etadi. 28-31 xaftalikgacha bo‘lgan davrda tug‘ilgan tana vazni 1000-1499 gramm bo‘lgan egizaklarda bu ko‘rsatkichlar  $67,0 \pm 0,54$  va  $19,3 \pm 0,51$  ga tengdir. 32-37 xaftalik davrda tug‘ilgan tana vazni 1501-2000 gramm bo‘lgan egizaklarda ushbu ko‘rsatkichlar  $68,4 \pm 0,87/19,1 \pm 0,44$  nisbatni tashkil etadi. Ushbu muddatda tug‘ilgan tana vazni 2000-2499 gramm bo‘lgan egizaklar yuragi miokard qavatida mushak to‘qimasi egallagan maydon hajmi  $69,1 \pm 1,4$  ni, mushaklararo shish egallagan maydon esa,  $20,2 \pm 0,47$  tashkil etadi

Shunday qilib, umumiy yo‘ldoshga ega, monoamniotik 22-27 xaftalik muddatgacha bo‘lgan davrda tug‘ilgan va yashash muddatlari har xil bo‘lgan egizaklarning miokard qavatida mushak to‘qimasi egallagan maydon hajmi 28-31 xaftalikgacha bo‘lgan muddatlarda tug‘ilgan egizaklarga nisbatan ko‘proq foizni tashkil etadi, tug‘ilish muddatlari oshgani sari mushaklararo egallagan maydon ulushining ortishi kuzatiladi.

Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar kardiomiositlarining morfologik o‘zgarishlari tug‘ilish muddatlari tana vazniga bog‘liq holda o‘ziga xos morfometrik ko‘rsatkichlariga egadir (3.2.2. jadval)

### 3.2.2 Jadval

#### Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar kardiomiositlarining morfometrik ko‘rsatkichlari (mkm)

| № | Tug‘ilish muddati | Tana vazni  | Kardiomiositlar (mkm)                   |
|---|-------------------|-------------|-----------------------------------------|
| 1 | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | $2,3 \pm 0,04$                          |
| 2 | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | $2,77 \pm 0,04^{***}$                   |
| 3 | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | $2,94 \pm 0,03^{***\wedge\wedge}$       |
|   |                   | 2000-2499 g | $3,07 \pm 0,06^{***\wedge\wedge\wedge}$ |

Eslatma: \* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* -  $P < 0,05$ , \*\*\* -  $P < 0,001$ ); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ -  $P < 0,05$ , ^^ -  $P < 0,01$ , ^^ -  $P < 0,001$ ).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, umumiy yo‘ldoshli monoamniotik 22-27 xaftagacha muddatda tug‘ilgan tana vazni 500-1000 grammni tashkil etib, egizaklar kardiomiositlarning morfometrik ko‘rsatkichlari  $2,3 \pm 0,04$  mkmga tengdir, bu ko‘rsatkichlar 28-31 xaftalik muddatda tug‘ilgan (tana vazni 1000-1499 gramm) egizaklarda  $2,77 \pm 0,04$  mkmni tashkil etadi. 32-37 xaftalik tug‘ilgan tana vazni 1500-1999 gramm bo‘lgan egizaklarda  $2,94 \pm 0,03$  mkm, tana vazni 2000-2499 gram bo‘lgan egizaklarda  $3,07 \pm 0,06$  mkmga tengdir.

Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar intramiokardial qon tomirlarining

morfologik o'zgarishlari tug'ilish muddatlari tana vazniga bog'liq holda o'ziga xos morfometrik ko'rsatkichlari qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

### 3.2.3. Jadval

**Umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklar intramiokardial qon tomir devori (QD) va bo'shlig'i (QB) morfometrik ko'rsatkichlari (%%)**

| No | Tug'ilish muddati | Tana vazni  | QB              | QD              |
|----|-------------------|-------------|-----------------|-----------------|
| 1  | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | 2,71±0,22       | 1,5±0,14        |
| 2  | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | 3,12±0,20***    | 2,1±0,26***     |
| 3  | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | 3,43±0,20***^^^ | 2,72±0,17***^^^ |
|    |                   | 2000-2499 g | 3,85±0,20***^^^ | 2,97±0,20***^^^ |

Eslatma: \* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 22-27 xaftalikgacha bo'lgan muddatda tug'ilgan tana vazni o'rtacha 500-999 gr bo'lgan umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklar intramiokardial qon tomirlar devori egallagan maydon 37,0 % ni, teng bo'lib, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon ulushi 64,0 % ni tashkil etadi, 28-31 xaftalik egizaklarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 39/61 % ga tengdir. 32-37 xaftalik egizaklarda tana vazni 1500-1999 bo'lgan egizaklarda qon tomir devori egallagan maydon 38 % ni tashkil etsa, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon 62 % ni tashkil etadi. Ushbu muddatda tug'ilgan tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda ushbu ko'rsatkichlar 40/60 % ni takil etadi.

Shunday qilib, turli muddatlarda tug'ilib, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan turli turli vaznili egizaklar yuragi intramiokardial qon tomirlarining qon tomir bo'shlig'i va qon tomir devori egallagan maydon ulushining ko'rsatkichlari tug'ilish muddatlari bo'yicha alohida farq-tafovutlarga ega emas. Biroq yurakning hajmiga va tug'ilish muddatlariga bog'liq holatda qon tomir devori va bo'shlig'i egallagan maydon ko'rsatkichlarida farqlar ko'zga tashlanadi. Bunday holat birinchidan yurak hajmi va tug'ilish muddatiga bog'liq holda ifodalansa, ikkinchidan qon tomirlar devoridagi patomorfologik o'zgarishlar tufayli kelib chiqishi mumkin.

Umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklar qon tomir va perivaskulyar bo'shliq egallagan maydonlarning nisbati tug'ilish muddati va egizaklar vazniga bog'liq holda o'zgarib boradi (3.2.4.jadval).

### 3.2.4. Jadval

#### Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar qon tomir va perivaskulyar bo‘shliq egallagan maydonlarning o‘zaro nisbatining morfometrik ko‘rsatkichlari (%%)


| No | Tug‘ilish muddati | Tana vazni  | Qon tomir      | PVB            |
|----|-------------------|-------------|----------------|----------------|
| 1  | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | 1,71±0,19      | 4,68±0,15      |
| 2  | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | 2,14±0,18***   | 5,69±0,25***   |
| 3  | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | 2,19±0,14***^^ | 6,28±0,30***^^ |
|    |                   | 2000-2499 g | 2,31±0,14***^^ | 5,67±0,36***^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* -  $P<0,05$ , \*\*\* -  $P<0,001$ ); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ -  $P<0,05$ , ^^ -  $P<0,01$ , ^^ -  $P<0,001$ ).


Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 22-27 xaftalik muddatgacha tug‘ilgan umumiy yo‘ldoshli monoamniotik (tana vazni 500-999 gr) egizaklar intrakardial qon tomirlari egallagan maydon ulushi 27 % ga teng bo‘lsa, PVB egallagan maydon ulushi 73 %ni tashkil etadi. 28-31 xaftalik muddatlarda tug‘ilgan egiz homilalarning o‘rtacha tana vazni 1000-1499 gramm bo‘lib, qon tomir ulushi 27 % ni, PVB 73 % maydonni egallaydi. Birinchi ikki guruhda qon tomir va PVB egallagan maydoni bir xil foizlarda namoyon bo‘lsada, ularning morfometrik ko‘rsatkichlarida katta farq mavjud. Jumladan 22-27 xaftalik tana vazni 500-999 gramm bo‘lgan egizaklarda Qon tomir - 1,71±0,19/PVB-4,68±0,15 ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 28-31 xaftalik tana vazni 1000-1499 gr bo‘lgan egizaklarda 2,14±0,18/ 5,69±0,25 ni tashkil etadi. 32-37 xaftalikda tana vazni o‘rtacha 1500-1999gramm bo‘lgan egizaklarda qon tomir maydonni 29 % ni, PVB 71 %ni egallaganligi qayd etiladi. Tana vazni 2000-2499 gramm bo‘lgan umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egizaklarda tug‘ilish muddatlariga mos ravishda 30/70 foiz nisbati kuzatiladi.

Shunday qilib, turli muddatlarda tug‘ilgan umumiy yo‘ldoshli monoamniotik egiz homilalar tana vazniga bog‘liq holda intramiokardial qon tomirlar va PVB egallagan maydonning ulushlari bir biridan farq qiladi. Jumladan barcha egiz homilalarda PVB egallagan maydon ulushi ko‘proqni tashkil etadi. Shuningdek, tug‘ilish muddati oshgan sari qon tomir va PVB egallagan maydonning ko‘rsatkichlari ham oshib boradi.

Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik 22-27 xaftalikda tug‘ilgan egizaklar o‘lim sabablariga ko‘ra va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili quyidagi diagrammada keltirilgan.




**3.6-rasm. PnevmoPATIYANING atelektatik shaklidan vafot etgan 22-27 haftalikda tugʻilgan tana vazni 500-999 gr boʻlgan egizaklar yuragining miokard qavtida mushak toʻqimasi (MT) va mushaklararo shish (MШ) egallagan maydon ulushining homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili.**




**3.7-rasm. Homiladorlikning 22-27 haftaligida tugʻilgan tana vazni 500-999 gr nazorat guruhidagi bitta tugʻilgan chaqaloqlar va pnevmoPATIYANING atelektatik shaklidan hamda homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar miokard tuzilmalari morfometrik koʻrsatkichlarining qiyosiy tahlili.**

Umumiy yoʻldoshli monoamniotik 28-31 haftalikda tugʻilgan egizaklar oʻlim sabablariga koʻra va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili quyidagi diagrammada keltirilgan.




**3.8-rasm. Pnevmonopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan 28-31 haftalikda tugʻilgan tana vazni 1000-1499 gr boʻlgan egizaklar yuragining miokard qavtida mushak toʻqimasi (MT) va mushaklararo shish (MSH) egallagan maydon ulushining homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili.**




**3.9-rasm. Homiladorlikning 28-31 haftaligida tugʻilgan tana vazni 1000-1499 gr nazorat guruhidagi bitta tugʻilgan chaqaloqlar va pnevmonopatiyaning atelektatik shaklidan hamda homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar miokard tuzilmalari morfometrik koʻrsatkichlarining qiyosiy tahlili.**

Umumiy yoʻldoshli monoamniotik 32-37 (1500-1999 gr) haftalikda tugʻilgan egizaklar oʻlim sabablariga koʻra va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili quyidagi diagrammada keltirilgan.




**3.10-rasm. Pnevmonopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan 32-37 haftalikda tugʻilgan tana vazni 1500-1999 gr boʻlgan egizaklar yuragining miokard qavtida mushak toʻqimasi (MT) va mushaklararo shish (MSH) egallagan maydon ulushining homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili.**




**3.11-rasm. Homiladorlikning 32-37 xaftaligida tug‘ilgan tana vazni 2000-2499 gr nazorat guruhidagi bitta tug‘ilgan chaqaloqlar va pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan hamda homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar miokard tuzilmalari morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili.**

Umumiy yo‘ldoshli monoamniotik 32-37 (2000-2499 gr) xaftalikda tug‘ilgan egizaklar o‘lim sabablariga ko‘ra va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili quyidagi diagrammada keltirilgan.



**3.10-rasm. Pnevmpatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan 32-37 xaftalikda tug‘ilgan tana vazni 2000-2499 gr bo‘lgan egizaklar yuragining miokard qavtida mushak to‘qimasi (MT) va mushaklararo shish (MШ) egallagan maydon ulushining homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar va nazorat guruhi bilan solishtirma tahlili.**



**3.12-rasm. Homiladorlikning 32-37 xaftaligida tug‘ilgan tana vazni 2000-2499 gr nazorat guruhidagi bitta tug‘ilgan chaqaloqlar va pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan hamda homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar miokard tuzilmalari morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili.**

### § 3.3. Umumiy yo‘ldoshli diamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfologik o‘zgarishlari


Pnevmpatiyaning atelektatik shakli bilan 22-27 xaftalik muddatda tug‘ilib vafot etgan, tana vazni 500-999 gramm bo‘lgan, umumiy yo‘ldoshli diamniotik egizaklar

yuragi miokarda qavatining ko‘plab kardiomiositlarida kariopiknoz, karioreksis kabiorqaga qaytar jarayonlar va ayrim kardiomiositlarda nekrotik o‘zgarishlar (kariolizis)-orqaga qaytmas jarayoni aniqlanadi. Mushaklararo shish kuchsiz yorug‘lanish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi (3.2.1-rasm). Eritrositlar qon tomir bo‘shlig‘ini to‘liq egallab turgan bo‘lib qon tomir devoriga yaqin joylashgan eritrositlar shaklining noaniqligi va gemoliz belgilari aniqlansa, qon tomir bo‘shlig‘ining markaziy qismida kam sonli shakli aniq, bir biriga qo‘shilmagan eritrositlar aniqlanadi. Qon tomirlar devori bo‘kgan va shishgan bo‘lib, endoteliositlarda nekrobiotik jarayon yaqqol ko‘zga tashlanadi, ayrim endoteliositlarning yadrosi esa aniqlanmaydi.



**3.2.1.-Rasm. Egizaklar yuragidagi mushaklar oralig‘laridagi kuchsiz rivojlangan shish holati va kardiomiositlarning nekrobiotik o‘zgarishlari. Gematoksilin-eozin bo‘yog‘ida bo‘yalgan. Ob.40, ok.10**

Kuruv maydoning ayrim joylarida kardiomiositlarning shishganligi, yadrosida kariopiknoz, aksariyat hujayralarda karioreksis va kariolizis holati kuzatiladi. Mushaklararo shish kuchli yorug‘lanish ko‘rinishida aks etadi (3.2.2-rasm), miositlarning tarqoq va tolalanganligi, tolalangan miositlarning periferiya tomonida mushak tolalarining fragmentlarga (mayda bo‘lakchalarga) ajralgan sohalari qayd etiladi. Qon tomir bo‘shlig‘ida eritrositlarning shakli noaniq, gemoliz holatida ekanligi aniqlanadi. Qon tomir devorida joylashgan kollogen tolalarning shish va ularning tolalanishi belgilari aniqlanadi. Endoteliositlar sitoplazmasi shishgan. Yadrosi karioreksis holatidagi hujayralarning ko‘pligi va kariolizis jarayoni rivojlangan hujayralarning kam sonli ekanligi kuzatiladi. Intima qavatining ayrim sohalorida deskavamatsiya holati mavjud.




**3.2.2.-Rasm. Egizaklar miokard qavatidagi mushaklararo kuchli shinishi. Veygert usulida bo‘yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko‘ruv maydoning ko‘plab sohalarida kardiomiositlarida nekrobtiotik o‘zgarishlar yaqqol namoyon bo‘lib, nekrotik o‘zgarishlar rivojlangan kardiomiositlar kamchilikni tashkil etadi. Biroq, qon tomirlarga yaqin joylashgan kardiomiositlarning aksariyatida nekrotik o‘zgarishlar qayd etiladi. Mushaklararo bo‘shliqning shishi tana vazni bir xil ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan egizaklarda ko‘ruv maydonida har xil hajmdagi yorug‘lanish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, tolalangan miositlarning tarqoq saholarida ularning mayda bo‘lakchalarga parchalanishi aniqlanadi. Qon tomir bo‘shlig‘ida eritrositlarning agregatsiya holatda ekanligi qayd etiladi. Qon tomir devorida kuchsiz shish, endoteliositlarning yadrosi piknotik holati, ayrim endoteliositlarning yadrosida kariolizis jarayoni qayd etilib, intimaning ayrim sohalarida deskvamatsiyasi jarayoni ko‘zga tashlanadi.

Shunday qilib, umumiy yo‘ldoshga ega bo‘lgan 22-27 xaftalik diamniotik egizaklarning miokard qon tomir tuzilmalaridagi tuzilmalaridagi nekrobtiotik va nekrotik o‘zgarishlar, mushak tuzilmalaridagi patomorfologik o‘zgarishlarga nisbatan ertaroq rivojlanadi. Qon tomirlar devoridagi o‘zgarishlar deskvamatsiya ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.


28-31 xaftaligacha bo‘lgan muddatlarda tug‘ilgan egizaklarning soni jami 14 nafar bo‘lib, ulardan 8 nafari (57 %) o‘g‘il jinsli egizaklar, 6 nafari (43 %) qiz jinsli egizaklardir. Tana vazni 1000-1499 gram bo‘lib, umumiy yo‘ldoshli diamniotik egizaklar yuragi miokard qavatining aksariyat kardiomiositlarining yadrosida kariopiknoz holati aniqlanadi, bir guruh kardiomiositlar yadrosida karioreksis holati kuzatiladi. Ayrim kardiomiositlarda kariolizis rivojlanish munosabati bilan yadrosining biroz yorug‘lanishi qayd etiladi. Miokard qavatida mushaklararo shish kuchsiz namoyon bo‘ladi (3.2.3-rasm). Bo‘shlig‘idagi shakli noaniq bo‘lgan eritrositlar aniqlangan intrakardial qon tomir devori kuchsiz shishganligi va endoteliositlarda kariopiknoz va

karioreksis holati kuzatiladi, ayrim endoteliositlarning yadrosi erib ketganligi aniqlanadi.



**3.2.3.-Rasm. Mushaklar oraliqlarida rivojlangan shish. Kardiomiositlardagi nekrobiotik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning chetki sohalarida joylashgan kardiomiositlarning shishi, yadrosining kariopiknoz holatdaligii, bir guruh kardiomiositlarda rivojlangan karioreksis va kariolizis jarayoni yaqqol namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Mushaklararo shish ham kuchli tus olishi miositlarning tolalanishiga xos oraliqlarda o'z aksini topadi. Ko'ruv maydoning ma'lum sohalarida mushak tolalarining fragmentlarga ajralishi ko'rinishida oraliq shish yo'qolishi aniqlanadi. Intramiokardial qon tomir bo'shlig'ida eritrositlarning shakli konturlarinig yo'qolishi hisobiga noaniqlik kasb etadi. Bu esa o'z navbatida gemoliz belgilari hisoblanadi. Qon tomirlar devorida shish, ayrim joylarida tolalanish qayd etilsa, aksariyat endoteliositlar yadrosida piknotik holat, bir guruh kardiomiositlarda karioreksis va kariolizis jarayoni kuzatiladi. Qon tomirning ayrim sohalarida intima qavatida deskvamatsiya holati yaqqol ifodalanadi. Kollogen tolalari tolalanishi qayd etiladi (3.2.4-rasm).




**3.2.4-Rasm. Qon tomirlar devori kollogen tolalarinig tolalanishi va bo'shlig'idagi eritrositlar holati. Van-Gizon usulida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning ayrim joylarida kardiomiositlarining yadrosida aniqlangan kariopiknoz, karioreksis hamda kariolizis holati bir ko'ruv maydonida miqdor jihatdan ajralib turadi. Aksariyat kardiomiositlarning yadrosida nekrobiotik o'zgarishlar saqlanib qolgan bo'lsa, bir guruh kardiomiositlarda nekrotik o'zgarishlar aniqlanadi. Umumiy

yo‘ldoshli diamniotik egizaklar yuragining miokard qavatida mushaklararo bo‘shliqning shishi ko‘ruv maydoning ayrim sohalarida bir chiziqli yorug‘lanish tarzida qayd etildi, shu sohadagi mushaklarning tolalanishi va fragmentlarga ajralganligi qayd etiladi. Qon tomirlarining bo‘shliqlarida shakli noaniq, bir biriga qo‘shilgan eritrositlar mavjud bo‘lib ularda gemoliz belgilari qayd etiladi. Qon tomirlar devorining shish fonida endoteliositlar yadrosida piknoz va karioreksis holati, ayrim endoteliositlarning yadrosida kariolizis hamda intimaning ayrim qismlarida deskavamatsiyasi jarayoni qayd etiladi.


Shunday qilib, 28-31 xaftalik muddatgacha tug‘ilib, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan, umumiy yo‘ldoshga ega bo‘lgan diamniotik egizaklarning birida aksariyat holatlarda vazni kichik egizaklar yuragining miokard qavati tuzilmalari morfologik jihatdan, tana vazni katta bo‘lgan umumiy yo‘ldoshli diamniotik egizaklar miokard tuzilmalaridagi morfologik o‘zgarishlar nisbatan jadal ko‘rinish aks ettiradi. Umumiy yo‘ldoshli diamniotik tana vazni bir xil ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan egizaklar yuragi miokarda qavatining tuzilmalaridagi morfologik o‘zgarishlar deyarli bir xilda ko‘rinishda aks etadi.

32-37 xaftaligacha bo‘lgan muddatlarda tug‘ilgan egizaklarning soni jami 12 nafar bo‘lib, ulardan 6 nafari (50 %) o‘g‘il jinsli egizaklar, 6 nafari (50 %) qiz jinsli tana vazni 1500-1999 gramm (jami 6 nafar bo‘lib, shularning 4 nafari o‘g‘il jinsli (66,7 %) , 2 nafari qiz jinsli (33,3%)) va 2000-2499 gramm (Jami 6 nafar bo‘lib, shularning 5 nafari o‘g‘il jinsli (83,3 %) , 1 nafari qiz jinsli (16,7%)) bo‘lgan egizaklardir. Tana vazni 1500-1999 gramm bo‘lgan umumiy yo‘ldoshli diamniotik egizaklar miokard qavatining ko‘plab kardiomiositlarining yadrosida kariopiknoz va karioreksis holati kuzatiladi (3.2.5-rasm).. Bir guruh kardiomiositlarda kariolizis va yadrosining yorug‘lanishi kuzatiladi. Miokard qavatida mushaklararo shish kuchliroq aks etadi. Intrakardial qon tomir bo‘shlig‘ida aniqlangan, shakli noaniq bo‘lgan eritrositlar son jihatidan ko‘pchilikni tashkil etib, ularning agregatsiyasi kuzatiladi. Qon tomirlar devori biroz kuchli shishgan va endoteliositlarda kariopiknoz va karioreksis holati kuzatiladi, bir guruh endoteliositlarning yadrosida kariolizis jarayoni qayd etiladi.



**3.2.5-Rasm. Nekrobioz holatidagi kardiomiositlar. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Pnevmonopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan, umumiy yo'ldoshli diamniotik tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklar yuragining kardiomiositlarida shish yaqqol namoyon bo'ladi. Kardiomiositlar yadrosining kariopiknoz holati va bir guruh kardiomiositlarda rivojlangan karioreksis holati ulardagi nekrobiotik jarayonlar jadallashib borayotganligi bilan aks etadi. Kardiomiositlarning kariolizis ko'rinishidagi nekrotik jarayoni ko'plab sohalarda uchraydi. Mushaklararo shish ayrim sohalarda kuchli namoyon bo'ladi. Miositlarning tarqoq va tolalanishi kuzatiladi. Ko'ruv maydonining ayrim joylarida fragmentlarga ajralgan miositlar maydoni ko'zga tashlanadi. Intrakardial arteriyalar bo'shlig'ida eritrositlarning konturlari noaniq bo'lib, aksariyatida agregatsiya jarayoni kuzatilsa (3.2.6-rasm), ayrim eritrositlarda gemoliz belgilari qayd etiladi. Qon tomirlar devorida shishi, tolalanishi, ko'plab endoteliositlarda kariopiknoz, bir guruh endoteliositlarda karioreksis va kariolizis holati aniqlanadi. Ushbu nekrobiotik va nekrotik jarayonlar fonida intimaning deskvamatsiya o'choqlari aniqlanadi.



**3.2.6.-Rasm. Intramiokardial qon tomirlar bo'lig'idagi eritrositlarning agregatsiya holati. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydonining ayrim sohalarida kardiomiositlarida yadrosida kariopiknoz holatiga nisbatan karioreksis holatidagi hujayralar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning oraliqlarida kariolizis holatidagi kardiomiositlar yadrosining biroz yorug'lanishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida kardiomiositlarning yadrosida

nekrobiotik o'zgarishlar nekrotik o'zgarishlar nisbatan ustunlik qilishini ko'rsatadi. Umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar yuragining miokard qavatida mushaklararo bo'shliqning shishi, perivaskulyar shishga hajm jihatdan yaqinroq bo'lib, ayrim sohalarda ularning tutashib ketganligi aniqlanadi. Mushaklarning tolalanishi fonida fragmentatsiya o'choqlari aniqlanadi. Qon tomirlarining bo'shliqlarida shakli yo'qolgan, agregatsiya holatidagi eritrositlar qayd etiladi. Qon tomirlar devorining kuchli shishi, kariopiknotik, karioreksis hamda kariolizis jarayoni fonida endoteliositlarning bujmayishi aniqlanadi. Qon tomir devoridagi endoteliositlar soni kamayishi kuzatiladi.

Shunday qilib, pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan homiladorlikning 32-37 xaftalik muddatida tug'ilib turli muddatlarda yashab vafot etgan (umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan diamniotik) tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarning bo'lgan yurak miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlari, tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan (umumiy yo'ldoshli diamniotik) egizaklar miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar qaraganda jadal kechadi biroq mikropreparatlarda sust namoyon bo'ladi.

### **§ 3.4. Umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfometrik o'zgarishlari**

Pnevmpatiyaning atelektatik shakli bilan, turli muddatlarda tug'ilgan, vafot etgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklarda miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar morfometrik jihatdan tug'ilish muddatiga va tana vazniga nisbatan farqtafovutlar ko'zga tashlanadi.

Mushak to'qimasi va mushaklararo shish egallagan maydon ulushi tug'ilish muddatlari va yurak hajmiga mos ravishda o'zgarib boradi (3.4.1-jadval).

#### **3.4.1 Jadval**

#### **Umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar yuragida rivojlangan shish va mushak to'qimasi maydonining morfometrik ko'rsatkichlari(%%)**

| <b>No</b> | <b>Tug'ilish muddati</b> | <b>Tana vazni</b> | <b>MT</b>       | <b>MSH</b>      |
|-----------|--------------------------|-------------------|-----------------|-----------------|
| 1         | <b>22-27 xaftalik</b>    | 500-999 gr        | 66,6±0,91       | 19,7±0,30       |
| 2         | <b>28-31 xaftalik</b>    | 1000-1499 g       | 73,8±0,66***    | 25,7±0,41***    |
| 3         | <b>32-37 xaftalik</b>    | 1500-1999g        | 75,5±0,53***^^^ | 28,2±0,53***^^^ |
|           |                          | 2000-2499 g       | 76,9±0,33***^^^ | 29,1±0,43***^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, umumiy yo'ldoshli diamniotik 22-27 xaftalikgacha bo'lgan davrda tug'ilgan (tana vazni 500-1000 gr) egiz homilalar miokard qavatida mushak to'qimasi egallagan maydon  $66,6 \pm 0,91$  ni, mushaklararo shish egallagan maydon ulushi  $19,7 \pm 0,30$  tashkil etadi. 28-31 xaftalikgacha bo'lgan davrda tug'ilgan egiz homilalarda ushbu ko'rsatkichlar  $73,8 \pm 0,66$  va  $25,7 \pm 0,41$  ni tashkil etadi. 32-37 xaftalik muddatda tug'ilgan tana vazni 1500-1999 gramm bo'lgan mushak to'qimasi egallagan maydon  $75,5 \pm 0,53$  ni tashkil qilsa, mushaklararo shish egallagan maydon  $28,2 \pm 0,53$  ni tashkil qiladi. Tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egiz homilalarda mushak to'qimasi ( $76,9 \pm 0,33$ ) va mushaklararo shishi ( $29,1 \pm 0,43$ ) egallagan maydonning ulushida mushak to'qimasining usutunligi kuzatiladi.

Shunday qilib, diamniotik, umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan, 22-27 xaftalik muddatgacha bo'lgan davrda tug'ilgan egiz homilalar miokardida mushak to'qimasi egallagan maydon hajmi, 28-31 xaftalikgacha bo'lgan muddatlarda tug'ilgan egizaklarga nisbatan kam ulushga ega. 32-37 xaftalik muddatlarda tug'ilgan egizaklar tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan homilalarda mushaklararo shish egallagan maydon ko'proqni tashkil etadi.

Tug'ilish muddati va tana vazni har xil bo'lgan umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan, diamniotik egiz homilalar intramiokardial qon tomir va perivaskulyar bo'shliq egallagan maydonlar ulushining nisbati turlicha ko'rsatkichlarga ega (3.4.2. jadval).

### 3.4.2 Jadval

#### Umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar kardiomiositlarining morfometrik ko'rsatkichlari (mkm)

| № | Tug'ilish muddati | Tana vazni  | Kardiomiositlar (mkm)             |
|---|-------------------|-------------|-----------------------------------|
| 1 | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | $2,26 \pm 0,05$                   |
| 2 | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | $2,61 \pm 0,05^{***}$             |
| 3 | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | $2,88 \pm 0,08^{***\wedge\wedge}$ |
|   |                   | 2000-2499 g | $3,01 \pm 0,06^{***\wedge\wedge}$ |

Eslatma: \* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* -  $P < 0,05$ , \*\*\* -  $P < 0,001$ ); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ -  $P < 0,05$ , ^^ -  $P < 0,01$ , ^^ -  $P < 0,001$ ).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 22-27 xaftagacha muddatda tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik (tana vazni 500-999 gr) bo'lgan egiz homilalar kardiomiositlar diametri  $2,6 \pm 0,05$  mkmga teng, ushbu ko'rsatkichlar 28-31 xaftalikda tug'ilgan egizak (1000-1499 g) homilalarda  $2,61 \pm 0,05$  mkm ni, 32-37 xaftalikda

tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda kardiomiositlarning diametri  $2,88 \pm 0,08$  mkm, tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar kardiomiositlarining diametri  $3,01 \pm 0,06$  mkmga tengdir.

Shunday qilib, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar tug'ilish muddatlari va tana vazniga bog'liq holda kardiomiositlar diometrida farqlar ko'zga tashlanadi, biroq ko'ruv maydonida kichik o'lchamli kardiomiositlar 32-37 xaftalikda tug'ilgan egizaklar kardiomiositlarining morfometrik ko'rsatkichlari tana vazniga nisbatan biri-biridan farq qiladi.

Pnevmopatiyaning atelektatik shakli shaklidan vafot etgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar tug'ilish muddati va tana vazniga turlichabo'lgan egizaklar intramiokardial qon tomirlarning morfometrik ko'rsatkichlari 3.4.3 jadvalda keltirilgan.

### 3.4.3. Jadval

**Umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar intramiokardial qon tomir devori (QD) va bo'shlig'i (QB) morfometrik ko'rsatkichlari (%%)**

| № | Tug'ilish muddati | Tana vazni  | QB                                      | QD                                      |
|---|-------------------|-------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|
| 1 | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | $2,86 \pm 0,23$                         | $1,42 \pm 0,14$                         |
| 2 | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | $3,12 \pm 0,20^{***}$                   | $2,0 \pm 0,22^{***}$                    |
| 3 | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | $3,5 \pm 0,17^{***\wedge\wedge}$        | $2,43 \pm 0,20^{***\wedge\wedge\wedge}$ |
|   |                   | 2000-2499 g | $3,86 \pm 0,18^{***\wedge\wedge\wedge}$ | $2,57 \pm 0,23^{***\wedge\wedge\wedge}$ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* -  $P < 0,05$ , \*\*\* -  $P < 0,001$ ); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ -  $P < 0,05$ , ^^ -  $P < 0,01$ , ^^ -  $P < 0,001$ ).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 22-27 xaftalik muddatgacha bo'lgan davrda tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik (vazni 500-999 gr) egiz homilalar intramiokardial qon tomirlari devori egallagan maydon ulushi 33,0 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon 67,0 % ni tashkil etadi, 28-31 xaftalik egizak (tana vazni 1000-1499 g) homilalarda ushbu ko'rsatkichlar 39/61 % ga tengligi aniqlanadi. 32-37 xaftalik tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egiz homilalarda qon tomir devori egallagan maydoni 41 % ni qon tomir bo'shlig'ini egallagan maydoni 59 % ni, tana vazni 2000-2499 gramm qon tomir devori egallagan maydon 40 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon ulushi 60 % ni tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan, yuraginig morfometrik ko'rsatkichlari bir biridan tug'ilish muddati va tana vazni jihatidan farq qiladigan egiz

homilalar miokard qavati qon tomir devori va bo'shlig'i o'rtasidagi ko'rsatkichlari nafaqat tug'ilish muddatlari, balki tanasining vazniga bog'liq holda turlicha morfometrik ko'rsatkichlarga ega bo'ladi.

Tug'ilish muddati va tana vazni turli bo'lgan pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egiz homilalar intramiokardial qon tomir va perivaskulyar bo'shliq egallagan maydonlar ulushining nisbati turlicha ko'rsatkichlarga ega (3.4.4. jadval).

#### 3.4.4. Jadval

**Umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar qon tomir va perivaskulyar bo'shliq egallagan maydonlarning o'zaro nisbatining morfometrik ko'rsatkichlari (%%)**

| No | Tug'ilish muddati | Tana vazni  | Qon tomir       | PVB             |
|----|-------------------|-------------|-----------------|-----------------|
| 1  | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | 1,5±0,14        | 4,5±0,20        |
| 2  | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | 2,0±0,13***^^^  | 4,86±0,25***^^^ |
| 3  | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | 2,36±0,13***    | 5,43±0,14***    |
|    |                   | 2000-2499 g | 2,38±0,13***^^^ | 5,5±0,34***^^^  |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, homiladorlikning 22-27 xaftalik muddatgacha bo'lgan davrda tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik (vazni 500-999 gr) egiz homilalar intramiokardial qon tomirlari egallab maydon 76 % ga teng bo'lsa, PVB egallab turgan maydon 24% ni tashkil etadi. 28-31 xaftalik muddatda qon tomir 71% maydonni, PVB 29 % ekanligi aniqlanadi. 32-37 xaftalik muddatda tug'ilgan tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan chaqaloqlar intramiokardial qon tomirlari egallab turgan maydon ulushi 70 % ni, PVB egallagan maydosh ulushi 30 % ni, ushbu muddatlarda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar intramiokardial qon tomir maydonning ulushi 71% ni, PVB ulushi 29 % ni tashkil etadi.

Shunday qilib, pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan turli muddatlarda tug'ilgan, umumiy yo'ldoshli diamniotik tana vazni turlicha bo'lgan, egizaklarning intramiokardial qon tomirlari va PVB egallagan maydonning morfometrik ko'rsatkichlari har xil, ko'pgina holatlarda PVB ni mushaklararo shish bilan qo'shilib ketishi uni egallab turgan maydoni biroz kengayishiga olib keladi.

Umumiy yo'ldoshli pnevmopatiya va homila ichi infeksiyasida vafot etgan va nazorat guruhidagi chaqaloqlarning morfometrik qiyosiy tahlili quyidagi jadvalda 3.4.5-jadvalda keltirilgan.

### 3.4.5-jadval

#### Nazorat guruhi, pnevmopatiya va homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar miokard tuzilmalaridagi morfometrik ko'rsatkichlari

|                         | N <sub>o</sub> | Xafta lik | Vazni       | MT            | MSH           | Kardiomiositlar | QB            | QTD           | QT            | PVB           |
|-------------------------|----------------|-----------|-------------|---------------|---------------|-----------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| Nazorat guruhi          | 1              | 22-27     | 500-999 gr  | 90,4±1,1      | 9,6±0,41      | 2,2±0,04        | 2,82±0,22     | 1,7±0,12      | 1,78±0,13     | 3,98±0,15     |
|                         | 2              | 28-31     | 1000-1499 g | 94,18±0,84    | 5,82±0,32     | 2,43±0,03       | 3,30±0,20     | 2,5±0,20      | 2,23±0,14     | 5,53±0,25     |
|                         | 3              | 32-37     | 1500-1999g  | 96,9±0,4      | 3,1±0,43      | 3,01±0,06       | 3,91±0,20     | 2,71±0,22     | 2,42±0,11     | 5,66±0,36     |
|                         |                |           | 2000-2499 g | 97,8±0,6      | 3,8±0,41      | 3,22±0,01       | 4,01±0,23     | 2,90±0,21     | 2,64±0,13     | 5,78±0,31     |
| Pnevmopatiya            | N <sub>o</sub> | Xafta lik | Vazni       | MT            | MSH           | Kardiomiositlar | QB            | QTD           | QT            | PVB           |
|                         | 1              | 22-27     | 500-999 gr  | 66,6±0,91     | 19,7±0,30     | 2,26±0,05       | 2,86±0,23     | 1,42±0,14     | 1,5±0,14      | 4,5±0,20      |
|                         | 2              | 28-31     | 1000-1499 g | 73,8±0,66***  | 25,7±0,41***  | 2,61±0,05***    | 3,12±0,20***  | 2,0±0,22***   | 2,0±0,13***   | 4,86±0,25***  |
|                         | 3              | 32-37     | 1500-1999g  | 75,5±0,53***^ | 28,2±0,53***^ | 2,88±0,08***^   | 3,5±0,17***^  | 2,43±0,20***^ | 2,36±0,13***^ | 5,43±0,14***^ |
|                         |                |           | 2000-2499 g | 76,9±0,33***^ | 29,1±0,43***^ | 3,01±0,06***^   | 3,86±0,18***^ | 2,57±0,23***^ | 2,38±0,13***^ | 5,5±0,34***^  |
| Homila ichi infeksiyasi | N <sub>o</sub> | Xafta lik | Tana vazni  | MT            | MSH           | Kardiomiositlar | QB            | QTD           | QT            | PVB           |
|                         | 1              | 22-27     | 500-999 gr  | 69,4±1,1      | 24,2±0,31     | 2,84±0,07       | 2,3±0,1       | 2,0±0,1       | 2,1±0,02      | 4,3±0,3       |
|                         | 2              | 28-31     | 1000-1499 g | 72,12±0,2***  | 26,1±0,3***   | 3,01±0,03***    | 2,8±0,2***    | 2,7±0,3***    | 2,42±0,03***  | 5,67±0,2***   |
|                         | 3              | 32-37     | 1500-1999g  | 74,3±0,6***^  | 29,3±0,51***^ | 3,44±0,06***^   | 3,1±0,4***^   | 2,8±0,2***^   | 2,68±0,1***^  | 5,86±0,3***^  |
|                         |                |           | 2000-2499 g | 75,7±0,8***^  | 30,1±0,21***^ | 3,61±0,02***^   | 3,5±0,1***^   | 2,94±0,1***^  | 2,93±0,2***^  | 6,10±0,1***^  |


Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001);  
^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, naozorat guruhiga nisbatan umumiy yo'ldoshli diamniotik pnevmopatiyaning atelektik va homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar miokard tuzilmalari morfometrik ko'rsatkichlari katta farq-tafovutlarga ega.

#### **IV BOB. ALOHIDA YO‘LDOSHLI MONO VA DIAMNIONLI ERTA TUG‘ILGANEGIZAKLAR MIOKARD TUZILMALARIDAGI MORFOLOGIK VA MORFOMETRIK JIHATLARI**

##### **§ 4.1. Alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfologik o‘zgarishlari**


Pnevmpatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan, alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar jami 42 nafar (21 juft) bo‘lib, shulardan 57 % o‘g‘il jinsiga, 43 % i qiz jinsiga mansub egizaklardir. Shundan 28 xaftaligacha bo‘lgan muddatlarda yashab vafot etgan egizaklarning soni jami 14 nafar bo‘lib, ulardan 8 nafari (57 %) o‘g‘il jinsli egizaklar, 6 nafari (43 %) qiz jinsli tana vazni 500-999 gr bo‘lganegizaklardir. Alohida yo‘ldoshli monoamniotik tana vazni kichik bo‘lgan egizak homilalar yuragi ko‘plab kardiomiositlarining yadrosida kariopiknoz, kam sonli kardiomiositlarda yadrosida karioreksis va kariolizis jarayoni aniqlanadi. Mushak to‘qimasida mushaklararo kuchsiz shish yorug‘lanish ko‘rinishida aniqlanadi (4.1.1-rasm). Intramiokardial qon tomir bo‘shlig‘idagi bir biridan alohida qo‘shilmagan holatda joylashganligi va ko‘plab eritrositlarning shakli noaniq eritrositlar mavjudligi aniqlanadi. Qon tomirlar devorida shish, aksariyat endoteliositlarda kariopiknoz va karioreksis holati qayd etiladi, ba’zi endoteliositlarning yadrosi aniqlanmaydi, intimaning ayrim sohalarida deskvamatsiya holati kuzatiladi.



**4.1.1.-Rasm. Miokard qavati mushaklari oraliqlaridagi kam darajadagi shish. Kariopiknoz va karioreksis jarayoni. Gematoksilin-eozin bo‘yog‘ida bo‘yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko‘ruv maydaning ayrim sohalarida kardiomiositlarda shish fonida yorug‘lanishi, yadrosida piknotik jarayonlar rivojlanganligi, ko‘plab kardiomiositlarda karioreksis va kariolizis jaryoni qayd etiladi. Mushak to‘qimasida mushaklararo yaqqol shish (4.1.2-rasm) hamda miositlarning tolalanish kuzatiladi. Tolalangan miositlarning bir qismida mushak tolalarining mayda bo‘lakchalarga (fragmentlarga) bo‘linganligi aniqlanadi. Qon tomir bo‘shlig‘ida eritrositlarning biroz noaniq va agregatsiya holatida ekanligi

qayd etiladi. Qon tomirlar devori kuchli shishgan, m'lum joylarida tolalanish, endoteliositlarda karioreksis va kariolizis jarayoni kuzatiladi. Shishib turgan intima qavatining ayrim sohalari ko'chib tushganligi aniqlanadi.




**4.1.2.-Rasm. Ayrim kardiomiositlarning kariolizis holati. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning ayrim sohalorida kardiomiositlar yadrosida karipiknoz va karioreksis holati rivojlangan kardiomiositlar oraliqlarida yadrosida kariolizis jarayonlari rivojlangan kardiomiositlar borligi kuzatiladi. Mushaklararo bo'shliqning shishi fonida mushaklarning tolalanishi va mayda bo'lakchalarga bo'linganligi aniqlanadi. Qon tomirlarining bo'shlig'ida agregatsiya holatidagi eritrositlar mavjud bo'lib, ayrimlarida gemoliz jarayoni kuzatiladi. Qon tomirlar devori va intima qavatining shishi, endoteliositlar yadrosida piknoz va karioreksis va kariolizis holati, ayrim hujayralarning bujmayishi va ko'chib tushganligi aniqlanadi.

Shunday qilib, alohida yo'ldoshli monoamniotik 22-27 xaftalik muddatda pnevmopatiyaning atelegtatik shakli bilan tug'ilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan nisbatan tana vazni 500-999 grbo'lgan egiz homilalarning miokard qavati qon tomir tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar, mushak tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar nisbatan jadalroq amalga oshadi. Biroq, mikroskopik ostida morfologik o'zgarishlar sustroq namoyon bo'ladi.


28-31 xaftalik muddatda tug'ilganlar soni jami 18 nafar bo'lib, shundan 10 nafari (55 %) o'gil jinsiga va 8 nafari (45%) qiz jinsiga mansub tana vazni 1000-1499 gramm bo'lgan egizaklardir. Alohida yo'ldoshli monoamniotik egiz homilalar miokard qavatida mushaklararo shish fonida kardiomiositlarining yadrosida kariopiknoz, ba'zi kardiomiositlar yadrosida karioreksis, bir guruh kardiomiositlar yadrosida kariolizis jarayoni qayd etiladi (4.1.3-rasm). Qon tomir bo'shlig'ida eritrositlar mavjud bo'lib, agregatsiya holatida, ko'plab eritrositlarda gemoliz belgilari kuzatiladi. Qon tomirlar

devori va intimasida sezilarli darajada shish belgilari, endoteliositlarda kariopiknoz va karioreksis holati, ba'zi endoteliositlarda kariolizis, ayrim endoteliositlarda sitoliz rivojlangan bo'lib, deskvamatsiya holati qayd etiladi.



**4.1.3.-Rasm. Mushak qavatidagi shish va nekrobiotik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning ayrim sohalarida mushak to'qimasida mushaklararo kuchli shish qayd etiladi. Kardiomiositlardagi shish fonida karioreksis va kariolizis jarayoni rivojlanadi (4.1.4-rasm). Mushak tolalarida tolalanish va ularning periferik sohalaridagi miositlarning mayda bo'lakchalarga parchalanganligi aniqlanadi. Intramiokardial qon tomir bo'shlig'idagi eritrositlar agregatsiya holatidan gemoliz holati o'tishi qayd etiladi. Qon tomirlar devori va intima qavatida shish, tolalalanish, endoteliositlar yadrosida karioreksis va kariolizis jarayoni, ayrim endoteliositlarda kariositoliz rivojlanganligi aniqlanadi.



**4.1.4.-Rasm. Mushaklararo kuchli shinishi fonida rivojlangan nekrobiotik o'zgarishlar. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10**


Aksariyat gistologik preparatlarda egizaklar yuragining miokard qavatida mushaklararo shishi, mushaklarning tarqoq holatdaligi va tolalanishi, tolalangan sohalarining bir qismida ularning mayda bo'lakchalarga bo'linganligi aniqlanadi. Tolalangan mushak to'qimasining kardiomiositlaridagi nekrobiotik o'zgarishlar ustunligida nekrotik jarayonlar rivojlanganligi ko'zga tashlanadi. Alohida yo'ldoshli monoamniotik egiz homilalar intramiokardial qon tomirlarining bo'shlig'idagi eritrositlarning agregatsiyasi fonida gemoliz belgilari aniqlanadi. Qon tomirlarning

intimasida shish, endoteliositlarda nekrobiotik va nekrotik jaryonlar natijasida intima qavatining ayrim sohalaridagi deskvamatsiyasi qayd etiladi.

Shunday qilib, alohida yo‘ldoshli 28-31 xaftalik muddatgacha pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug‘ilgan monoamniotik egizaklarda tana vazniga bog‘liq holda patomorfologik jarayonlar o‘z aksini topadi. Jumladan, miokard mushak tuzilmalaridagi morfologik o‘zgarishlar sustroq namoyon bo‘ladi, qon tomir tuzilmalaridagi patomorfologik o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu muddatda kardiomiositlarda nekrobiotik o‘zgarishlar ustunligi fonida nekrotik o‘zgarishlar rivojlanadi.


32-37 xaftalikda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug‘ilgan alohida yo‘ldoshli, monoamniotik egizaklar soni 10 nafar bo‘lib, shulardan 6 nafari (60 %) o‘g‘il jinsiga mansub 4 nafari (40 %) qiz jinsiga mansub bo‘lib, tana vazni 1500-1999 gramm (jami 5 nafar bo‘lib, shularning 2 nafari o‘g‘il jinsli (40 %) , 3 nafari qiz jinsli (60%)) va 2000-2499 gramm (Jami 5 nafari bo‘lib, shularning 4 nafari o‘g‘il jinsli (80 %) , 1 nafari qiz jinsli (20%)) bo‘lgan egizak homilalardir.

Alohida yo‘ldoshli monoamniotik tan vazni 1500-1999 gramm bo‘lgan egiz homilalar kardiomiositlarining kattalashganligi (gipertrofiyasi), yadrosida kariopiknoz va karioreksis holati, ko‘plab hujayralar yadrosida kariolizis aniqlanadi. Ayrim kardiomiositlarda sitolizis jarayoni kuzatiladi. Mushak to‘qimasida mushaklararo shishning PVB bilan qo‘shilib ketganligi qayd etiladi (4.1.5-rasm). Mushaklar oraliqlaridagi (intramiokardial) qon tomir bo‘shlig‘idagi kam sonli eritrositlar joylashgan bo‘lib, ularda agregatsiya holatida ekanligi aniqlanadi. Intramiokardial qon tomirlar devorida kuchli shish fonida bir guruh endoteliositlarda kariopiknoz, karioreksis kariolizis holati kuzatiladi. Qon tomir intima qavatining kuchli shishi va deskvamatsiyasi qayd etiladi.



**Rasm-4.1.5. Miokard qavatidagi kuchli shish. Kariopiknoz holatidagi kardiomyositlar. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan alohida yo'ldoshli monoamniotik egiz homilalarning kardiomyositlari sitoplazmasida yorug'lanish (shish belgilari), yadrosida aksariyat kardiomyositlarda karioreksis va kariolizis holati aniqlanadi. Ayrim sohalarda sitolizis holati qayd etiladi. Mushaklararo shish bir tomonga yo'nalgan yo'lak ko'rinishida namoyon bo'ladi. Miositlar tolalangan va fragmentatsiya holati rivojlangan. Intrakardial qon tomirlar bo'shlig'ida mavjud bo'lgan eritrositlarning agregatsiyasi va plazmaning koagulyasiyasi, bir guruh eritrositlarda gemoliz holati aniqlanadi. Qon tomirlar intima qavati, kollogen tolalari va endoteliositlarda shish, ayrim endoteliositlarda sitoreksis jarayoni kuzatiladi (4.1.6.-rasm).



**4.1.6.-Rasm. Intramiokardial qon tomirlari devoridagi kollogen tolalarning shish. Van-Gizon usulida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning ayrim sohadlarida kardiomyositlarining gipertrofiyasi belgilari, sitoplazmasining shishi, yadrosida kariopiknotik o'zgarishlar, karioreksis hamda kariolizis holati kuzatiladi. Mushak to'qimasida mushaklararo bo'shliqning shishi cho'zilgan yorug'lanish ko'rinishida aks etadi. Mushaklar tarqoqligi, tolalanganligi va mayda bo'lakchalarga bo'linganligi aniqlanadi. Qon tomirlarining bo'shliqlig'ida plazmaning koagulyasiyasi, eritrositlarning agregatsiyasi qayd etiladi. Qon tomirlar devoridagi kollogen tolalari, intima qavati va ko'plab endoteliositlarning shishi, endoteliositlarda nekrobiotik o'zgarishlar, ba'zi endoteliositlarning nekrotik o'zgarishlar, yakka holdagi endoteliositlarda sitoreksis va sitoliz jarayoni rivojlanadi.

Shunday qilib, 32-37 xaftalik muddatgacha pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan alohida yo'ldoshli monoamniotik tana vazni 1500-1999 gramm bo'lgan egizaklarning miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar jadal namoyon bo'ladi. Jumladan mushaklararo shishning PVB bilan qo'shib ketishi kuzatiladi. Tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan alohida yo'ldoshli monoamniotik egizaklar miokard

tuzilmalaridagi nekrobiotik o'zgarishlar bilan bir qatorda nekrotik o'zgarishlar ham jadal rivojlanadi.

#### **§4.2. Alohida yo'ldoshlimonoamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfometrik ko'rsatkichlari**

Alohida yo'ldoshli turlicha muddatlarda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan monoamniotik egiz homilalarda, tug'ilish muddatlari va tana vazni bo'yicha pnevmopatiyaning atelektatik shaklida rivojlanadigan patomorfologik o'zgarishlarning morfometrik ko'rsatkichlari (mushaklararo shish, qon tomir bo'shlig'i va devorining ulushi, perivaskulyar bo'shliq hamda kardiomiosit) bir biridan farq qilishi kuzatiladi. (4.2.1-jadval).

##### **4.2.1 Jadval**

#### **Alohida yo'ldoshli monoamniotik egizaklar yuragida rivojlangan shish va mushak to'qimasi maydonining morfometrik ko'rsatkichlari(%%)**

| No | Tug'ilish muddati | Tana vazni  | MT              | MSH             |
|----|-------------------|-------------|-----------------|-----------------|
| 1  | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | 67,4±1,44       | 20,3±0,47       |
| 2  | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | 74,2±0,74***    | 26,1±0,36***    |
| 3  | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | 75,3±0,58***^^^ | 29,2±0,67***^^^ |
|    |                   | 2000-2499 g | 76,8±0,35***^^^ | 29,3±0,53***^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, alohida yo'ldoshli monoamniotik 22-27 xaftalik (tana vazni 500-999 gr) bo'lgan egiz homilalar yuragida mushak to'qimasi hosil qilgan maydon ko'rsatkichi 67,4±1,44, mushaklararo shish hosil qilgan maydon 20,3±0,47 ekanligi qayd etiladi. Homiladorlikning 28-31 xaftalik davrda tug'ilgan (tana vazni 1000-1499 gr) egiz homilarda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 74,2±0,74 va 26,1±0,36 ni tashkil etadi. 32-37 xaftalik muddatda tanavazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklar miokard qavatida mushak to'qimasi egallagan maydon 75,3±0,58, mushaklararo shish egallagan maydon 29,2±0,67 ni tashkil etadi. Ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lib tug'ilgan egizaklar mushak to'qima (76,8±0,35) va mushaklararo shish (29,3±0,53) egallagan maydonning morfometrik ko'rsatkichlari keskin farq kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, alohida yo'ldoshli monoamniotik 22-27 xaftalik tana vazni 500-999 grbo'lgan egizaklar miokard qavatida mushak to'qimasi egallagan maydon hajmi qolgan muddatlarga nisbatan ko'proq etib, tug'ilish muddatlari oshgani sari

mushaklararo egallagan maydon ulushining ortishi borishi qayd etiladi.

Alohida yo‘ldoshli monoamniotik turli muddatlarda tug‘igan egizaklarda kardiomiositlarining patomorfologik o‘zgarishlari pnevmopatiyaning atelektatik shakliga, tug‘ilish muddatlari va tana vazniga bog‘liq holda o‘ziga xos morfometrik ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi (4.2.2. jadval).

#### 4.2.2 Jadval

##### Alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar kardiomiositlarining morfometrik ko‘rsatkichlari (mkm)

| № | Tug‘ilish muddati | Tana vazni  | Kardiomiositlar (mkm) |
|---|-------------------|-------------|-----------------------|
| 1 | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | 2,3±0,04              |
| 2 | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | 2,67±0,04***          |
| 3 | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | 2,86±0,07***^^        |
|   |                   | 2000-2499 g | 3,01±0,06***^^^       |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001).

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, alohida yo‘ldoshga ega bo‘lgan, monoamniotik 22-27 xaftalik muddatda tug‘ilgan tana vazni 500-999 gr bo‘lgan egiz homilalarning kardiomiositlaridagi morfometrik ko‘rsatkichlari 2,3±0,04 mkmga, 28-31 xaftalikda (tana vazni 1000-1499 gr) tug‘ilgan egizak homilalarda 2,67±0,04 mkmga, 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999gramm bo‘lgan egizaklarda kardiomiositlar diametri 2,86±0,07 mkmga, ushbu muddatda tug‘ilgan tana vazni 2000-2499 gramm bo‘lgan egizaklarda 3,01±0,06 mkmga tengdir.

Shunday qilib, tana vazni 2000-2499 gramm bo‘lgan alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar kardiomiositlaridagi morfometrik ko‘rsatkichlar tana vazni 500-1000 va 1000-1499 gramm bo‘lganlardan keskin farq bilan, tana vazni 1500-1999gramm bo‘lgan egizaklar kardiomiositlaridagi morfometrik ko‘rsatkichlardan kam miqdordagi farq bilan ajralib turadi.

Alohida yo‘ldoshga ega monoamniotik tana vazni katta, kichik va tana vazni bir xil rivojlangan egiz homilalar mushaklar oraliqlarida joylashgan intramiokardial qon tomirlarning morfometrik ko‘rsatkichlari tug‘ilish muddatlari ortgan sari oshib borishi kuzatiladi (4.2.3 jadval).

#### 4.2.3. Jadval

##### Alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar intramiokardial qon tomir devori (QD) va bo‘shlig‘i (QB) morfometrik ko‘rsatkichlari (%%)

| № | Tug‘ilish muddati | Tana vazni | QB        | QD       |
|---|-------------------|------------|-----------|----------|
| 1 | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr | 2,71±0,22 | 1,5±0,14 |

|   |                       |             |                 |                 |
|---|-----------------------|-------------|-----------------|-----------------|
| 2 | <b>28-31 xaftalik</b> | 1000-1499 g | 3,13±0,20***    | 2,13±0,26***    |
| 3 | <b>32-37 xaftalik</b> | 1500-1999g  | 3,29±0,19***^^^ | 2,36±0,20***^^^ |
|   |                       | 2000-2499 g | 3,57±0,29***^^^ | 2,56±0,20***^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, alohida yo'ldoshga ega 22-27 xaftalik bo'lgan muddatda tug'ilgantana (tana vazni 500-999 gr) monoamniotik egiz homilalarning intramiokardial qon tomirlari devorining egallagan maydoni 36,0 % ni, bo'shlig'i egallagan maydon 64,0 % ni, 28-31 xaftalikda (vazni 1000-1499 gr) tug'ilgan egiz homilalarda ushbu ko'rsatkichlar 40/60 % ni, 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda 42/58 % ni, ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lib tug'ilgan egizaklarda qon tomir devori egallagan maydon ulushi 48 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon ulushi 52 % ni tashkil etadi.

Shunday qilib, homiladorlikning turli muddatlarda pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan turli vaznga ega egizaklar ichida, yurak intramiokardial qon tomirlarining qon tomir devori egallagan maydon ulushining kamligi qayd etildi.

Alohida yo'ldoshga ega monoamniotik egiz homilalarda qon tomir va perivaskulyar bo'shliq egallagan maydonlarning nisbati tug'ilish pnevmopatiyaning atelektatik shakliga mos ravishda tug'ilish muddati va tana vazniga bog'liq holda o'zgarib boradi (4.2.4. jadval).

#### 4.2.4. Jadval

**Alohida yo'ldoshli monoamniotik egizaklar qon tomir va perivaskulyar bo'shliq egallagan maydonlarning o'zaro nisbatining morfometrik ko'rsatkichlari (%%)**

| № | Tug'ilish muddati     | Tana vazni   | Qon tomir       | PVB             |
|---|-----------------------|--------------|-----------------|-----------------|
| 1 | <b>22-27 xaftalik</b> | 500-999 gr   | 1,71±0,13       | 4,69±0,15       |
| 2 | <b>28-31 xaftalik</b> | 1000-1499 gr | 2,15±0,18***    | 5,43±0,25***    |
| 3 | <b>32-37 xaftalik</b> | 1500-1999gr  | 2,19±0,13***^^^ | 5,07±0,29***^^^ |
|   |                       | 2000-2499 gr | 2,30±0,15***^^^ | 5,57±0,36***^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 22-27 xaftalik muddatigacha pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan (tana vazni 500-999 gr) alohida yo'ldoshga ega monoamniotik egizaklar miokard qavatidagi intrakmiokardial qon tomirlari egallagan maydon ulushi 72% ga teng bo'lsa, PVB egallagan maydon ulushi 28% ni tashkil etadi. 28-31 xaftalikgacha muddatlarda tug'ilgan egiz homilalarda qon tomir ulushi 71 % ni, PVB 29% maydonni egallaydi. 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999gramm bo'lib tug'ilgan egizaklarda qon tomir

egallagan maydoni 70 % ni, PVB egallagan maydoni 30 % ni, ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo‘lib tug‘ilgan egizaklarda qon tomir maydonni 71 % ni, PVB 29% ni egallaganligi qayd etiladi.

Shunday qilib, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan alohida yo‘ldoshga ega monoamniotik egiz homilalarda qon tomir va perivaskulyar bo‘shliq egallagan maydonlarning nisbati tug‘ilish muddati va tana vazniga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Turli muddatlarda tug‘ilgan alohida yo‘ldoshli monoamniotik egiz homilalar yuragining hajmiga bog‘liq holda miokard qavatining intramiokardial qon tomirlari va PVB egallagan maydoning ulushlari tug‘ilish muddatlariga paralel ravishda ortib boradi.

Umumiy yo‘ldoshli pnevmopatiya va homila ichi infeksiyasida vafot etgan va nazorat guruhidagi chaqaloqlarning morfometrik qiyosiy tahlili quyidagi jadvalda 4.2.5-jadvalda keltirilgan.

**4.2.5-jadval**

**Nazorat guruhi, pnevmopatiya va homila ichi infeksiyasidan vafot etgan alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar miokard tuzilmalaridagi morfometrik ko‘rsatkichlari**

| Nazorat guruhi                        | N <sub>o</sub> | Xaftalik | Vazni       | MT           | MSH          | Kardiomiositlar | QB           | QTD          | QT           | PVB          |
|---------------------------------------|----------------|----------|-------------|--------------|--------------|-----------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
|                                       | 1              | 22-27    | 500-999 gr  | 90,4±1,1     | 9,6±0,41     | 2,2±0,04        | 2,82±0,22    | 1,7±0,12     | 1,78±0,13    | 3,98±0,15    |
|                                       | 2              | 28-31    | 1000-1499 g | 94,18±0,84   | 5,82±0,32    | 2,43±0,03       | 3,30±0,20    | 2,5±0,20     | 2,23±0,14    | 5,53±0,25    |
|                                       | 3              | 32-37    | 1500-1999g  | 96,9±0,4     | 3,1±0,43     | 3,01±0,06       | 3,91±0,20    | 2,71±0,22    | 2,42±0,11    | 5,66±0,36    |
| Pnevmpatiyaning atelektatik shaklidan |                |          | 2000-2499 g | 97,8±0,6     | 3,8±0,41     | 3,22±0,01       | 4,01±0,23    | 2,90±0,21    | 2,64±0,13    | 5,78±0,31    |
|                                       | N <sub>o</sub> | Xaftalik | Vazni       | MT           | MSH          | Kardiomiositlar | QB           | QTD          | QT           | PVB          |
|                                       | 1              | 22-27    | 500-999 gr  | 67,4±1,44    | 20,3±0,47    | 2,3±0,04        | 2,71±0,22    | 1,5±0,14     | 1,71±0,13    | 4,69±0,15    |
|                                       | 2              | 28-31    | 1000-1499 g | 74,2±0,74*** | 26,1±0,36*** | 2,67±0,04***    | 3,13±0,20*** | 2,13±0,26*** | 2,15±0,18*** | 5,43±0,25*** |

|                                                  |          |                 |                   |                     |                     |                        |                     |                     |                     |                     |
|--------------------------------------------------|----------|-----------------|-------------------|---------------------|---------------------|------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------------------|
| Homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar | 3        | 32-37           | 1500-1999g        | 75,3±0,58***^<br>^^ | 29,2±0,67***^^<br>^ | 2,86±0,07***^<br>^^    | 3,29±0,19***^<br>^^ | 2,36±0,20***^<br>^^ | 2,19±0,13***^<br>^^ | 5,07±0,29***<br>^^^ |
|                                                  |          |                 | 2000-2499 g       | 76,8±0,35***^<br>^^ | 29,3±0,53***^<br>^  | 3,01±0,06***^<br>^^    | 3,57±0,29***^<br>^^ | 2,56±0,20***^<br>^^ | 2,30±0,15***^<br>^^ | 5,57±0,36***<br>^^^ |
|                                                  | <b>№</b> | <b>Xaftalik</b> | <b>Tana vazni</b> | <b>MT</b>           | <b>MSH</b>          | <b>Kardiomiositlar</b> | <b>QB</b>           | <b>QTD</b>          | <b>QT</b>           | <b>PVB</b>          |
|                                                  | 1        | 22-27           | 500-999 gr        | 68,1±0,1            | 23,2±0,32           | 2,51±0,01              | 2,4±0,3             | 2,0±0,1             | 2,5±0,01            | 4,2±0,1             |
|                                                  | 2        | 28-31           | 1000-1499 g       | 70,2±0,2***         | 26,1±0,41***        | 2,82±0,04***           | 2,8±0,2***          | 2,6±0,2***          | 2,82±0,04***        | 5,61±0,2***         |
|                                                  | 3        | 32-37           | 1500-1999g        | 72,0±0,5***^<br>^   | 28,1±0,52***^<br>^  | 3,21±0,08***^<br>^^    | 3,3±0,2***^^<br>^^  | 2,72±0,2***^<br>^   | 2,82±0,1***^<br>^   | 5,97±0,3***^<br>^^  |
|                                                  |          |                 | 2000-2499 g       | 74,2±0,9***^<br>^   | 31,2±0,22***^<br>^  | 3,42±0,09***^<br>^^    | 3,6±0,1***^^<br>^^  | 2,87±0,1***^<br>^   | 3,1±0,3***^^<br>^^  | 6,02±0,1***^<br>^^  |


Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001);  
^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, naozorat guruhiga nisbatan alohida yo'ldoshli monoamniotik pnevmopatiyaning atelektik va homila ichi infeksiyasidavvafot etgan egizaklar miokard tuzilmalari morfometrik ko'rsatkichlari katta farqtafovutlarga ega.

#### § 4.3. Alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfologik o'zgarishlari


Pnevmpatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan alohida yo'ldoshli diamniotik 28 xaftaligacha bo'lgan muddatlarda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan egizaklarning soni jami 20 nafar bo'lib, ulardan 12 nafari (60 %) o'g'il jinsli egizaklar, 8 nafari (40 %) qiz jinsli tana vazni 500-999 grbo'lgan egizaklardir. Shundan 22-27 xaftalik muddatlarda yashab vafot etgan egizaklarning soni jami 20 nafar bo'lib, ulardan 12 nafari (60 %) o'g'il jinsli egizaklar, 8 nafari (40 %) qiz jinsliegizaklardir. Ushbu guruh egizak homilalar yuragining miokard qavatida joylashgan bir guruh kardiomiositlarining sitoplazmasida shish, yadrosida piknotik o'zgarishlar, karioreksis va kariolizis holatida ekanligi hamda mushak to'qimasida mushaklararo shish bilan paralel ravishda namoyon bo'lishi kuzatiladi (4.3.1.-rasm). Miokard qavatining intramiokardial qon tomirlari bo'shlig'idagi joylashgan eritrositlarning agregatsiyasi, plazmasining kaogulyasiya belgilari aniqlanadi. PVB ning kuchsiz bir tomonlama kengayganligi aniqlanadi Qon tomirlardagi ikollogen tolalar va intimaning kuchsiz

shishi, endoteliositlarning kuchli shishi hamda endoteliositlarda nekrobiotik o'zgarishlar qayd etiladi, alohida endoteliositlarda nekrotik o'zgarishlar ya'ni kariolizis va sitoreksis jarayoni kuzatilib, endoteliositlarning yadrosi ko'rinmaydi, intimaning ayrim sohalari ko'chib ketganligi aniqlanadi.



**4.3.1.-Rasm. Kardiomiositlardagi nekrobiotik o'zgarishlar (kariopiknoz, karioreksis va kariolizis). Qon tomirlar devorining shishi. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning aksariyat qismida homilalarning kardiomiositlarning sitoplazmasida shish, yadrosida nekrobiotik jarayonlar (kariopiknoz, karioreksis, sitoreksis) avj olishi va ushbu jarayoning nekrotik o'zgarishlar (kariolizis, sitolizis) bilan almashinishi kuzatiladi. Mushak to'qimasida mushaklararo shish yakka holatdagi keng "yo'lak" ko'rinishida va "mayda yorug'lanish" lar ko'rinishida namoyon bo'ladi (4.3.2.-rasm). Miositlarning tarqoq va tolalanganligi hamda miositlarning ma'lum sohalarda fragmentatsiya jarayoni aniqlanadi. Mushak oraliqlaridagi inramiokardial qon tomir bo'shlig'ida eritrositlarning konturlari noaniq va agregatsiya holatida ekanligi hamda gemoliz belgilari qayd etiladi. PVB bo'shliqning har tomonlama kengayganligi aniqlanadi. Qon tomirlar devori kuchli shish, intimaning bo'kishi, endoteliositlar sitoplazmasininsh shishi, kollogen tolalarining tolalanishi kuzatiladi. Endoteliositlarda avj olgan nekrobiotik o'zgarishlar (karioriknoz, karioreksis, sitoreksis) nekrotik jarayonlar (kariolizis, sitoliz) bilan jadal almashinuvi natijasida deskvamatsiya holati kelib chiqqanligi aniqlanadi.




**4.3.2.-Rasm. Mushak qavatidagi "yo'lak"lar ko'rinishidagi kuchli shinishi. Veygert usulida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko'ruv maydoning ayrim sohalarida mushak to'qimasida har xil ko'rinishdagi shishlar, miositlarning tarqoqligi va tolalanishi hamda fragmentatsiya holati aniqlanadi. Kardiomiositlar sitoplazmasi shishingan, yadrosida kariopiknoz va karioreksis holati (nekrobiotik o'zgarishlar) rivojlangan. Nekrobiotik holatdagi kardiomiositlar oraliqlarida yadrosida kariolizis jarayoni avj olgan va yakka holatdagi sitoliz belgilari mavjud bo'lgan kardiomiositlar ko'zga tashlanadi. PVB ikki tomonlama kengaygan. Qon tomirlarining bo'shlig'ida agregatsiya holatidagi eritrositlarda gemoliz belgilar qayd etiladi. Qon tomirlar devorining kollogen tolalari va endoteliositlar shishingan, intimasi bo'kkan. Endoteliositlarda kariopiknoz va karioreksis jarayoni rivojlangan ayrim hujayralarning bo'jmayishi aniqlanadi. Bir guruh endoteliositlarning yadrosida kariolizis holati, ko'chib tushganligi (deskvamatsiya) qayd etiladi.


Shunday qilib, alohida yo'ldoshli diamniotik 22-27 xaftalik muddatda pnevmopatiyaning atelektatik bilan tug'ilib, turli muddat yashab vafot etgan egiz homilalarning kardiomiositlardagi patomorfologik o'zgarishlar mushaklararo shish bilan paralel ravishda sodir bo'ladi. Keyinchalik miokard tuzilmalaridagi nekrobiotik o'zgarishlar jadallik bilan nekrotik o'zgarishlar bilan almashinadi.

28-31 xaftalikka bo'lgan muddatda tug'ilgan egizaklar soni jami 12 nafar bo'lib, shundan 8 nafari (67 %) erkak jinsiga, 4 nafari (33%) ayol jinsiga mansub, tana vazni 1000-1499 gramm bo'lgan egizaklardir. Egiz homilalarda miokard qavatida mushaklararo shish mushak to'qimasining turli sohalarida har xil miqdorda rivojlanganligi aniqlanadi. Kardiomiositlarning sitoplazmasi shishi fonida yadrosida kariopiknoz va karioreksis (nekrobiotik jarayonlar), bir guruh kardiomiositlar yadrosida kariolizis (nekrotik) jarayoni kuzatiladi (4.3.3-rasm). PVB bir tomonlama kengaygan. Qon tomir bo'shlig'ida eritrositlarning agregatsiya va ko'plab eritrositlarda gemoliz belgilari qayd etiladi. Qon tomirlar devoridagi kollogen tolalari va intimasida shish, endoteliositlarda gidropik distrofiya, kariopiknoz va karioreksis holati, ba'zi endoteliositlarda kariolizis hamda deskvamatsiya holati aniqlanadi.



**4.3.3.-Rasm. Kariopiknoz. Karioreksisgyematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob. 40, ok.10**

Ko'ruv maydonining ayrim sohalarida miokard qavati mushak to'qimasida mushaklararo kuchli shish har xil kattalikda namoyon bo'ladi qayd etiladi. Kardiomiositlar sitoplazmasida gidropik distrofiya, karioreksis va kariolizis jarayoni aniqlanadi. Mushak tolalarida tolalanish va ularning ma'lum qismida fragmentatsiya jarayoni kuzatiladi. Mushak to'qimasi oraliqlarida joylashgan intramiokardial qon tomir bo'shlig'idagi eritrositlar agregatsiya holatidan gemoliz holatiga o'tganligi qayd etiladi. PVB bo'shliq har tomonlama kuchli kengayganligi ko'zga tashlanadi. Qon tomirlar devori va intima qavatining shishinganligi, kollogen tolalari tolalalaganligi (4.3.4-rasm), endoteliositlar yadrosida karioreksis va kariolizis jarayoni hamda bir guruh endoteliositlarda kariositoliz rivojlanganligi aniqlanadi. Intima qavatining ko'plpb sohalarida deskvamatsiya jarayoni qayd etiladi.



**4.3.4.-Rasm. Qon tomirlar devori va intima qavatining shishinganligi, kollogen tolalari tolalalaganligi. Van-Gizon usulida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**


Ayrim mikropreparatlarda miokard qavatida mushaklararo shish turli kattaliklarda va turli saholarda shakllanganligi ko'zga tashlanadi. Mushaklarning tarqoq holatdaligi va tolalanishi kuzatiladi. Tolalangan miositlarning chetki zonalarida fragmentatsiya jarayoni qayd etiladi. Mushak to'qimasida nekrobiotik o'zgarishlar (Kardiomiositlar yadrosining kariopiknozi, karioreksisi va sitoreksisi) fonida nekrotik jarayonlar (kariolizis, kariositoliz) rivojlanganligi aniqlanadi. Alohida yo'ldoshli diammiotik egizlarning inramiokardial qon tomirlari artrofi (PVB) ikki tomonlama kengayish hosil

qilgan, qon tomirlar bo'shlig'idagi plazmaning aralashmasi va eritrositlarning agregatsiyasi holati hamda gemoliz belgilari qayd etiladi. Qon tomirlarning intimasi qavatida va kollogen tolalarida shish, endoteliositlar sitoplazmasida gidropik distrofiya aniqlanadi. Endoteliositlarda nekrobiotik va nekrotik jaryonlar natijasida intima qavatining ayrim-ayrim joylarida deskvamatsiyasi qayd etiladi.

Shunday qilib, alohida yo'ldoshli 28-31 xaftalik muddatgacha pnevmopatiyaning ateletik shakli bilan tug'ilgan tana vazni 1000-1499 gramm bo'lgan diamniotik egizaklarda mushaklararo shish mushak to'qimasining turli sohalarida har xil miqdorda rivojlanadi. Nekrobiotik jarayonlardan nekrotik jarayonlar ustunlik qila boshlaydi. PVB bir tomonlama kengayadi. Qon tomirlar bo'shlig'ida eritrositar agregatsiyasi kuzatiladi. Jumladan intramiokard qon tomir tuzilmalaridagi patomorfologik o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu muddatda kardiomiositlarda nekrobiotik o'zgarishlar ustunligi fonida nekrotik o'zgarishlar rivojlanadi.


32-37 xaftalikda tug'ilgan egizaklar soni 18 nafar bo'lib, shulardan 10 nafari (55 %) erkak jinsiga mansub 8 nafari (45 %) ayol jinsiga mansub, tana vazni 1500-1999 va 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklardir. Tana vazni 1500-1999 gramm bo'lgan egizaklar jami 10 nafar bo'lib, shularning 6 nafari o'g'il jinsli (60 %) , 4 nafari qiz jinsli (40%)) va 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklar jami 8 nafari bo'lib, shularning 5 nafari o'g'il jinsli (63 %) , 3 nafari qiz jinsli (37%)) bo'lgan egizak homilalardir.

Alohida yo'ldoshli monoamniotik tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egiz homilalar kardiomiositlarining kattalashganligi (gipertrofiyasi), yadrosida kariopiknoz va karioreksis holati, ko'plab hujayralar yadrosida kariolizis aniqlanadi. Ayrim kardiomiositlarda sitolizis jarayoni kuzatiladi. Mushak to'qimasida mushaklararo shishning PVB bilan qo'shib ketganligi qayd etiladi (4.3.5-rasm). Mushaklar oraliqlaridagi (intramiokardial) qon tomir bo'shlig'idagi kam sonli eritrositlar joylashgan bo'lib, ularda agregatsiya holatida ekanligi aniqlanadi. Intramiokardial qon tomirlar devorida kuchli shish fonida bir guruh endoteliositlarda kariopiknoz, karioreksis kariolizis holati kuzatiladi. Qon tomir intima qavatining kuchli shishi va deskvamatsiyasi qayd etiladi.



**4.3.5.-Rasm. Alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar miokard qavatidagi PVB ning mushaklararo shish bilan qo‘shilib ketgan holati. Van-Gizon usulida bo‘yalgan. Ob.40, ok.10**


Tana vazni 2000-2499 gramm bo‘lgan alohida yo‘ldoshli monoamniotik egiz homilalarning kardiomiositlari sitoplazmasida yorug‘lanish (shish belgilari), yadrosida aksariyat kardiomiositlarda karioreksis va kariolizis holati aniqlanadi (4.3.6.-rasm). Ayrim sohalarda sitolizis holati qayd etiladi. Mushaklararo shish bir tomonga yo‘nalgan yo‘lak ko‘rinishida PVB qo‘shilib ketish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Miositlar tolalangan va fragmentatsiya holati rivojlangan. Intrakardial qon tomirlar bo‘shlig‘ida mavjud bo‘lgan eritrositlarning agregatsiyasi va plazmaning koagulyasiyasi, bir guruh eritrositlarda gemoliz holati aniqlanadi. Qon tomirlar intima qavati, kollogen tolalari va endoteliositlarda shish, ayrim endoteliositlarda sitoreksis jarayoni kuzatiladi.



**4.3.6.-Rasm. Intramikardial qon tomirlar ko‘ndalang kesimi. Mushaklararo shish. Kardiomiositlarda karipiknotik va karioreksis holatining aks etishi. Gematoksilin-eozinda bo‘yalgan. Ob.40, ok.10**

Ko‘ruv maydonining ko‘plab sohalarda kardiomiositlarining gipertrofiyasi belgilari, sitoplazmasining shinishi, yadrosida karipiknotik o‘zgarishlar, karioreksis hamda kariolizis holati kuzatiladi. Mushak to‘qimasida mushaklararo bo‘shliqning shishi cho‘zilgan yorug‘lanish ko‘rinishida aks etadi. Mushaklar tarqoqligi, tolalanganligi va mayda bo‘lakchalarga bo‘linganligi aniqlanadi (4.3.7.-rasm). Qon tomirlarining bo‘shliqlig‘ida plazmaning koagulyasiyasi, eritrositlarning agregatsiyasi qayd etiladi. Qon tomirlar devoridagi kollogen tolalari, intima qavati va ko‘plab endoteliositlarning shishi, endoteliositlarda nekrobiotik o‘zgarishlar, ba‘zi endoteliositlarning nekrotik o‘zgarishlar, yakka holdagi endoteliositlarda sitoreksis va

sitoliz jarayoni rivojlanadi.



**Rasm-4.3.7. Mushak to'qimasini fragmentatsiya holati. Gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan. Ob.40, ok.10**

Shunday qilib, alohida yo'ldoshli 32-37 xaftalik muddatgacha pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan, monoamniotik tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarning miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar jadal namoyon bo'ladi. Jumladan, mushaklararo shishning PVB bilan qo'shib ketishi kuzatiladi. Qon tomir devoridv deskvamatsiya jarayoni rivojlanadi. Tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklar mushak to'qimasida shish PVB bilan qo'shib ketishi, miokard tuzilmalaridagi nekrobiotik o'zgarishlar bilan bir qatorda nekrotik ustunligi kuzatiladi, jumladan PVB har tomonlama kengayadi, eritrositlarning gemolizi va plazmaning kaogulyasisi kuzatiladi. Deskvamatsiya jarayoni rivojlangan sohalar ko'pligi bilan ajralib turadi.

#### **§ 4.4. Alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklar miokard tuzilmalarining morfometrik o'zgarishlari**

Alohida yo'ldoshli turli muddatlarda tug'ilib pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan diamniotik egizaklarda miokard tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar morfometrik ko'rsatkichlari yurak hajmi va tug'ilish muddatiga nisbatan ifodalandi.

Pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklar yuragi miokard qavatining mushak to'qimasi va mushaklararo shish tarqalgan maydon ulushi tug'ilish muddatlari va yurak hajmiga mos ravishda o'zgarib borishi qayd etiladi (4.4.1-jadval).

##### **4.4.1 Jadval**

#### **Alohida diamniotik egizaklar yuragida rivojlangan shish va mushak to'qimasi maydonining morfometrik ko'rsatkichlari(%%)**

| <b>№</b> | <b>Tug'ilish muddati</b> | <b>Tana vazni</b> | <b>MT</b> | <b>MSH</b> |
|----------|--------------------------|-------------------|-----------|------------|
| 1        | 22-27 xaftalik           | 500-999 gr        | 68,2±1,5  | 21,3±0,64  |

|   |                       |             |                 |                 |
|---|-----------------------|-------------|-----------------|-----------------|
| 2 | <b>28-31 xaftalik</b> | 1000-1499 g | 75,1±0,64***    | 22,2±0,40***    |
| 3 | <b>32-37 xaftalik</b> | 1500-1999g  | 76,4±0,29***^^^ | 23,1±0,78***^^^ |
|   |                       | 2000-2499 g | 77,6±0,48***^^^ | 23,7±0,66***^^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001);  
 ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^ - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, alohida yo'ldoshli diamniotik 22-27 xaftalikgacha bo'lgan davrda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan tana vazni 500-999 gr bo'lgan egizaklarning miokard qavatida ko'ruv maydonida mushak to'qimasi egallagan maydon ko'rsatkichlari 68,2±0,1,5, mushaklararo shish egallagan maydon ko'rsatkichlari 21,±0,64, 28-31 xaftalikgacha bo'lgan davrda tug'ilgan (tana vazni 1000-1499 gr) egizaklarda ushbu ko'rsatkichlar 75,1±0,64 va 22,2±0,40 ekanligi aniqlanadi. 32-37 xaftalik muddatda tana vazni 1500-1999gramm bo'lib tug'ilib turli muddatlarda yashab vafot etgan egizaklarda mushak to'qimasi egallagan maydon ulushi 76,4±0,29, mushaklararo shish egallagan maydon ulushi 23,1±0,78ekanligi qayd etiladi. Ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lib tug'ilgan egizaklar miokard qavati mushak to'qimasi va mushaklararo shish (77,6±0,48 / 23,7±0,66) egallalab turgan maydonning ulushi hisobida mushak to'qimasining usutunligi qayd etiladi.

Shunday qilib,pnevmapatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilib vafot etgan egizaklarningtug'ilish va yashash muddati turlicha bo'lgan, alohida yo'ldoshga ega monoamniotik egizak homilalar yuragi miokard qavatidagi intramiokardial qon tomirlar bo'shlig'i va devorining o'zaro nisbati tug'ilish va ularning yashagan muddatlariga mos ravishda ortib boradi. Egizaklar tanasining vazni bo'yicha esa, miokard tuzilmalarini morfometrik ko'rsatkichlari barcha tug'ilish muddatlarida bir biridan farqlanadi.

Tug'ilish muddatlari va tana vazni bog'liq holda umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar kardiomiositlarining morfologik o'zgarishlari o'ziga xos morfometrik ahmiyat kasb etadi (4.4.2. jadval).

#### 4.4.2 Jadval

##### Alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklar kardiomiositlarining morfometrik ko'rsatkichlari (mkm)

| No | Tug'ilish muddati     | Tana vazni  | Kardiomiositlar (mkm) |
|----|-----------------------|-------------|-----------------------|
| 1  | <b>22-27 xaftalik</b> | 500-999 gr  | 2,39±0,05             |
| 2  | <b>28-31 xaftalik</b> | 1000-1499 g | 2,71±0,03***          |
| 3  | <b>32-37 xaftalik</b> | 1500-1999g  | 2,96±0,06***^^        |
|    |                       | 2000-2499 g | 3,16±0,09***^^^       |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh

natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 22-27 xaftalik muddatda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan alohida yo'ldoshli tana vazni 500-999 grbo'lgan diamniotik egiz homilalarning kardiomiositlarining ko'rsatkichlari  $2,39 \pm 0,05$  mkmga, 28-31 xaftalikda  $2,71 \pm 0,03$  mkmga 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda  $2,96 \pm 0,06$  mkmga ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda  $3,16 \pm 0,09$  mkmga teng ekanligi aniqlanadi.

Shunday qilib, tug'ilish muddatlariga bog'liq holatda kardiomiositlarning diametri oshib boradi. Egizaklarning tana vazniga bog'liq holda kardiomiositlar diametri muddatlar kesimida bir biridan farqlanadi.

Turli muddatlarda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan, alohida yo'ldoshli diamniotik tana vazni turlicha bo'lgan egizak homilalar yuragining miokard qavati intramiokardial qon tomirlarning morfometrik ko'rsatkichlari 4.4.3 jadvalda keltirilgan.

#### 4.4.3. Jadval

**Umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar intramiokardial qon tomir devori (QD) va bo'shlig'i (QB) morfometrik ko'rsatkichlari (%%)**

| № | Tug'ilish muddati | Tana vazni   | QB                                | QD                                |
|---|-------------------|--------------|-----------------------------------|-----------------------------------|
| 1 | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr   | $2,92 \pm 0,22$                   | $1,86 \pm 0,23$                   |
| 2 | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 gr | $3,38 \pm 0,18^{***}$             | $2,5 \pm 0,27^{***}$              |
| 3 | 32-37 xaftalik    | 1500-1999gr  | $3,64 \pm 0,13^{***\wedge\wedge}$ | $2,92 \pm 0,20^{***\wedge\wedge}$ |
|   |                   | 2000-2499 gr | $4,07 \pm 0,19^{***\wedge\wedge}$ | $2,86 \pm 0,23^{***\wedge\wedge}$ |

Eslatma: \* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 22-27 xaftalik muddatda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan alohida yo'ldoshga ega diamniotik tana vazni 500-1000 gramm bo'lgan egizak homilalar yuragi miokard qavatining intramiokardial qon tomirlari devorining ulushi 39 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon 61 % ni, 28-31 xaftalikda 37/63 % ni, 32-37 xaftalikda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tana vazni 1500-1999gramm bo'lib tug'ilgan egizaklarda ushbu ko'rsatkichlar 45/55 % ni, ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lib tug'ilgan egizaklarda 41 % / 59 % ni tashkil etadi.

Shunday qilib, turli muddatlarda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan

tugʻilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan, alohida yoʻldoshga ega monoamniotik egizak homilalar yuragi miokard qavatidagi intramiokardial qon tomirlar boʻshligʻi va devorining oʻzaro nisbati tugʻilish muddatlariga mos ravishda ortib boradi. Tana vazni boʻyicha esa, morfometrik koʻrsatkichlari barcha tugʻilish muddatlarida bir biridan farqlanadi.

Homiladorlikning har xil muddatlarida pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tugʻilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan alohida xarion pardaga oʻralgan (diamniotik) egizaklar miokard qavati mushaklararo joylashgan (intramiokardial) qon tomirlari egallab turgan maydonning ulushi va PVB maydoning tashkil etuvchi sohalarning oʻrtasidaga koʻrsatkichlar bir biridan farqlanishi nafaqat tugʻilishi muddatiga, balki tana vazniga ham bevosita bogʻliq hisoblanadi (4.4.4. jadval).

#### 4.4.4. Jadval

**Alohida yoʻldoshli diamniotik egizaklar qon tomir va perivaskulya boʻshliq egallagan maydonlarning oʻzaro nisbatining morfometrik koʻrsatkichlari (%%)**

| No | Tugʻilish muddati | Tana vazni  | Qon tomir      | PVB            |
|----|-------------------|-------------|----------------|----------------|
| 1  | 22-27 xaftalik    | 500-999 gr  | 1,71±0,13      | 5,06±0,25      |
| 2  | 28-31 xaftalik    | 1000-1499 g | 2,14±0,18***   | 5,14±0,14***   |
| 3  | 32-37 xaftalik    | 1500-1999g  | 2,38±0,13***^^ | 5,86±0,27***^^ |
|    |                   | 2000-2499 g | 2,5±0,13***^^  | 6,14±0,27***^^ |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* -  $P<0,05$ , \*\*\* -  $P<0,001$ ); ^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ -  $P<0,05$ , ^^ -  $P<0,01$ , ^^ -  $P<0,001$ ).

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, homiladorlikning 22-27 xaftalik muddatda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tugʻilgan alohida yoʻldosh ega diamniotik tana vazni 500-999 grboʻlgan egizak homilalar intrakmiokardial qon tomirlari egallab maydon 25 % ga teng boʻlsa, PVB egallab turgan maydon 75 % ni tashkil etadi. 28-31 xaftalik muddatda bu morfometrik koʻrsatkichlar 29 % /71 % , 32-37 xaftalik muddatda tana vazni 1500-1999gramm boʻlgan egizaklarda 28/72 %, tana vazni 2000-2499 gramm boʻlgan egizaklarda 29 % / 71 % ni tashkil etishi qayd etiladi.

Demak, homiladorlikning har xil muddatlarda tugʻilib, pnevmopatiyaning atelektatik shakli rivojlangan alohida-alohida yoʻldoshlarga va alohida-alohida xarion parda ega (diamniotik) egiz homilalar miokard qavati (intramiokardial) qon tomirlari va PVB ulushi egizak homilalarning tugʻilish muddatiga mos holatda oshib borishi qayd etiladi. Biroq, egizaklarning tana vazni boʻyicha qon tomir egallagan maydon va PVB egallagan maydon oʻrtasida nisbat bir biridan farq qiladi.

Umumiy yoʻldoshli pnevmopatiya va homila ichi infeksiyasida vafot etgan va

nazorat guruhidagi chaqaloqlarning morfometrik qiyosiy tahlili quyidagi jadvalda 4.4.5-jadvalda keltirilgan.

#### 4.4.5-jadval

**Nazorat guruhi, pnevmopatiya va homila ichi infeksiyasidan vafot etgan alohida yo‘ldoshli monoamniotik egizaklar miokard tuzilmalaridagi morfometrik ko‘rsatkichlari**

| Nazorat guruhi                                                 | N <sub>o</sub> | Xaftalik | Vazni       | MT            | MSH           | Kardiomiosiotlar  | QB              | QTD           | QT            | PVB           |
|----------------------------------------------------------------|----------------|----------|-------------|---------------|---------------|-------------------|-----------------|---------------|---------------|---------------|
|                                                                | 1              | 22-27    | 500-999 gr  | 90,4±1,1      | 9,6±0,41      | 2,2±0,04          | 2,82±0,22       | 1,7±0,12      | 1,78±0,13     | 3,98±0,15     |
|                                                                | 2              | 28-31    | 1000-1499 g | 94,18±0,84    | 5,82±0,32     | 2,43±0,03         | 3,30±0,20       | 2,5±0,20      | 2,23±0,14     | 5,53±0,25     |
|                                                                | 3              | 32-37    | 1500-1999g  | 96,9±0,4      | 3,1±0,43      | 3,01±0,06         | 3,91±0,20       | 2,71±0,22     | 2,42±0,11     | 5,66±0,36     |
|                                                                |                |          | 2000-2499 g | 97,8±0,6      | 3,8±0,41      | 3,22±0,01         | 4,01±0,23       | 2,90±0,21     | 2,64±0,13     | 5,78±0,31     |
| Pnevmpatiyaning atelektatik shaklidan vafot etganlar egizaklar | N <sub>o</sub> | Xaftalik | Vazni       | MT            | MSH           | Kardiomiosiotlar  | QB              | QTD           | QT            | PVB           |
|                                                                | 1              | 22-27    | 500-999 gr  | 67,4±1,44     | 20,3±0,47     | 2,3±0,04          | 2,71±0,22       | 1,5±0,14      | 1,71±0,13     | 4,69±0,15     |
|                                                                | 2              | 28-31    | 1000-1499 g | 74,2±0,74***  | 26,1±0,36     | 2,67±0,04**<br>*  | 3,13±0,20***    | 2,13±0,26***  | 2,15±0,18***  | 5,43±0,25***  |
|                                                                | 3              | 32-37    | 1500-1999g  | 75,3±0,58***^ | 29,2±0,67***^ | 2,86±0,07**<br>*^ | 3,29±0,19***^   | 2,36±0,20***^ | 2,19±0,13***^ | 5,07±0,29***^ |
|                                                                |                |          | 2000-2499 g | 76,8±0,35***^ | 29,3±0,53***^ | 3,01±0,06**<br>*^ | 3,57±0,29***^   | 2,56±0,20***^ | 2,30±0,15***^ | 5,57±0,36***^ |
| Homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar               | N <sub>o</sub> | Xaftalik | Tana vazni  | MT            | MSH           | Kardiomiositlar   | QB              | QTD           | QT            | PVB           |
|                                                                | 1              | 22-27    | 500-999 gr  | 72,4±1,2      | 21,2±0,2      | 2,73±0,02         | 2,6±0,2         | 1,8±0,22      | 1,81±0,01     | 4,1±0,1       |
|                                                                | 2              | 28-31    | 1000-1499 g | 73,1±0,4***   | 24,1±0,4***   | 2,94±0,03**<br>*  | 3,1±0,3**<br>*  | 2,4±0,21***   | 2,33±0,01***  | 5,56±0,3***   |
|                                                                | 3              | 32-37    | 1500-1999g  | 76,2±0,2***^  | 27,3±0,3***^  | 3,14±0,07**<br>*^ | 3,6±0,8**<br>*^ | 2,6±0,1***^   | 2,56±0,2***^  | 5,72±0,2***^  |
|                                                                |                |          | 2000-2499 g | 78,17±0,3***^ | 28,1±0,1***^  | 3,45±0,08**<br>*^ | 3,9±0,2**<br>*^ | 2,8±0,2***^   | 2,81±0,3***^  | 5,83±0,2***^  |

Eslatma:\* - 1-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (\* - P<0,05, \*\*\* - P<0,001);  
^ - 2-guruh natijalariga taqqoslanganda farqlar aniqlanadi (^ - P<0,05, ^^ - P<0,01, ^^^ - P<0,001)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, naozorat guruhiga nisbatan alohida yo'ldoshli diamniotik pnevmopatiyaning atelekttik va homila ichi infeksiyasidavn vafot etgan egizaklar miokard tuzilmalari morfometrik ko'rsatkichlari katta farq-

tafovutlarga ega.

## Xotima

Butun dunyoda eng dolzarblaridan biri ko'p homiladorlik uning chastotasining doimiy o'sishi, ko'plab perinatal asoratlarning muammosi bugungi kungacha qadar saqlanib qolmoqda (Visaitova M.B.2003; Makasariya N.A.2014; Barrett J.F., Ritchie W.K.2002; Hirtenlehner-Ferber K., Krampl E., Strohmer H. et al.2002; Rao A., Sairam S., Shehata H. Obstetric 2004). Bugungi kunga kelib, plasentaning monoxorial (MX) turi asoratlari isbotlangan bo'lib yuqori xavf omillariga kiritilgan, ona va homila perinatal davr asoratlari ko'p bo'lib, MX egizaklarida bixorial (BX) egizaklarga o'lim darajasi 3-4 baravar yuqoriroqdir (Sichinava L.G., Kalashnikov S.A., Panina O.B.2003; Gaziano E.P., De Lia J.E., Kuhlmann R.S. 2000; Hirtenlehner-Ferber K., Krampl E., Strohmer H. et al. 2002; Ferreira I., Laureano C., Branco M. et al.2005; Leduc L., Takser L., Rinfret D. 2005).

Tadqiqotimizda umumiy va alohida yo'ldoshli monoamniotik va diamniotik erta tug'ilib, turli muddatlarda tug'ilgan egizaklar miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlarni morfologik jihatlarini o'rganish **maqsad** qilib olindi. Maqsadga erishish uchun umumiy va alohida yo'ldoshli mono va diamniotik egizaklar yuragining miokard qavati tuzilmalari patomorfologik va morfometrik tahlili o'tkazildi. Olingan natijalarga ko'ra,

homiladorlikning 22-27 xaftalik muddatgacha tug'ilib turli muddatlarda yashab pnevmopatiyaning ateletatik shaklidan vafot etgan tana vazni 500-999 gr bo'lgan, umumiy yo'ldoshga ega monoamniotik egizaklarning miokard qavati mushak tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar, qon tomir tuzilmalariga nisbatan sustroq amalga oshishi kuzatiladi. 28-31 xaftalikda tug'ilgan tana vazni 1000-1499 gramm bo'lgan egizaklarda kardiomyositlarda ham nekrobiotik o'zgarishlar qon tomirlardagi o'zgarishlar kabi sust rivojlanishi kuzatiladi. 32-37 xaftalikda nekrobiotik va nekrotik jarayonlar jadal amalga oshadi. Jumladan ushbu muddatda tana vazni 1500-1999 va 2000-2499 gramm egizaklar yuragi miokard tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o'zgarishlar bir xil jadallik va bir xil ko'rinishda aks etadi. Kardiomyositlarning morfometrik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bunday holatni kardiomyositlarning hajmi jihatdan katta bo'lishi (gipertrofiyasi) bilan bog'lash mumkin. Egizaklarda gipertrofik kardiomiopatiya 10-15% hollarda homila istisqosiga olib kelishi mumkin (Sananès N., et al. 2016). Yurak hajmida farq-tafovutlar kam bo'lgan egizaklarda distrofik va

nekrotik o'zgarishlar bir xil jadallik va bir xil ko'rinishda aks etadi.

Umumiy yo'ldoshli monoamniotik 22-27 xaftalik muddatgacha bo'lgan davrda tug'ilib turli muddatlarda yashab pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan tana vazni 1000-1499 gr bo'lgan egizaklar miokard qavatida mushak to'qimasi egallagan maydon o'rtacha  $65,4 \pm 0,87$  ni, mushaklararo shish egallagan maydon esa,  $19,1 \pm 0,44$  tashkil etadi. 28-31 xaftalikgacha bo'lgan davrda tug'ilgan tana vazni 1000-1499 gramm bo'lgan egizaklarda bu ko'rsatkichlar  $66,0 \pm 0,54$  va  $19,3 \pm 0,51$  ga tengdir. 32-37 xaftalik davrda tug'ilgan tana vazni 1500-1999 gramm bo'lgan egizaklarda ushbu ko'rsatkichlar  $65,4 \pm 0,87 / 19,1 \pm 0,44$  nisbatni tashkil etadi. Ushbu muddatda tug'ilgan tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklar yuragi miokard qavatida mushak to'qimasi egallagan maydon hajmi  $67,4 \pm 1,4$  ni, mushaklararo shish egallagan maydon esa,  $20,2 \pm 0,47$  tashkil etadi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar  $70,4 \pm 1,1 / 21,6 \pm 0,41$ ;  $74,18 \pm 0,84 / 22,82 \pm 0,32$ ;  $76,9 \pm 0,4 / 23,1 \pm 0,43$  va  $77,8 \pm 0,6 / 23,8 \pm 0,41$  ni tashkil etgan ( $R < 0,01$ ). Bu esa, miokard qavatida morfometrik ko'rsatkichlar bitta tug'ilgan homilalarga nisbatan kamroqni tashkil etishini anglatadi. Bu holatni yakka tug'ilgan chaqoloqlarda morfologik o'zgarishlar jadal kechishi bilan izohlash mumkin.

Umumiy yo'ldoshli diamniotik 22-27 xaftagacha muddatda tug'ilgan tana vazni 500-1000 grammni tashkil etib, egizaklar kardiomiositlarning morfometrik ko'rsatkichlari  $2,3 \pm 0,04$  mkmga tengdir, bu ko'rsatkichlar 28-31 xaftalik muddatda tug'ilgan (tana vazni 1000-1499 gramm) egizaklarda  $2,67 \pm 0,04$  mkmni tashkil etadi. 32-37 xaftalik tug'ilgan tana vazni 1500-1999 gramm bo'lgan egizaklarda  $2,94 \pm 0,03$  mkm, tana vazni 2000-2499 gram bo'lgan egizaklarda  $3,07 \pm 0,06$  mkmga tengdir. Ushbu ko'rsatkichlar nazorat guruhida 22-27 xaftalikda  $2,2 \pm 0,04$  mkm, 28-31 xaftalikda  $2,73 \pm 0,03$  mkm, 32-37 xaftalikda  $3,01 \pm 0,06$  mkm va  $3,22 \pm 0,01$  mkmni tashkil etgan ( $R < 0,05$ ). Bu esa kardiomiositlarning hajmi nazorat guruhiga nisbatan kamroqni tashkil etganligini ko'rsatadi.

22-27 xaftalikgacha bo'lgan muddatda tug'ilgan tana vazni o'rtacha 500-1000 gram bo'lgan umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklar intramiokardial qon tomirlar devori egallagan maydon 37,0 % ni, teng bo'lib, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon ulushi 64,0 % ni tashkil etadi, 28-31 xaftalik egizaklarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 39/61 % ga tengdir. 32-37 xaftalik egizaklarda tana vazni 1500-1999 bo'lgan

egizaklarda qon tomir devori egallagan maydon 38 % ni tashkil etsa, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon 62 % ni tashkil etadi. Ushbu muddatda tug'ilgan tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda ushbu ko'rsatkichlar 40/60 % ni takil etadi.

22-27 xaftalik muddatgacha tug'ilgan umumiy yo'ldoshli monoamniotik (tana vazni 500-999 gr) egizaklar intrakmokardial qon tomirlari egallagan maydon ulushi 73 % ga teng bo'lsa, PVB egallagan maydon ulushi 27 % ni tashkil etadi. 28-31 xaftalik muddatlarda tug'ilgan egiz homilalarning o'rtacha tana vazni 1000-14990 gramm bo'lib, qon tomir ulushi 70 % ni, PVB 30 % maydonni egallaydi. 32-37 xaftalikda tana vazni o'rtacha 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda qon tomir maydonni 71 % ni, PVB 29 % ni egallaganligi qayd etiladi. Tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan umumiy yo'ldoshli monoamniotik egizaklarda tug'ilish muddatlariga mos ravishda 70/30 foiz nisbati kuzatiladi.

Umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan, pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan, 22-27 xaftalik muddatgacha tug'ilgan (tana vazni 500-999 gr) **diamniotik** egizaklarning 28-31 xaftaliklarda (tana vazni 1000-1499 gr) va 32-37 xaftalik tana vazni 1500-1999va 2000-2499 gramm bo'lgan egizak homilalarning miokard tuzilmalaridagi nekrobiotik va nekrotik o'zgarishlar nisbatan ertaroq rivojlanadi. Tug'ilish muddatining 32-37 xaftaligida nisbatan vazni har xil bo'lgan egizaklar yuragi miokarda qavati tuzilmalaridagi nekrobiotik va nekrotik o'zgarishlar deyarli bir xilda ko'rinishda nomoyon bo'ladi. Kardiomiositlardagi distrofik o'zgarishlarning rivojlanishi arterial qon orqali kislorod bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq (Kuruvilla S, Balakrishnan K, Parvathy U. 2004)

Umumiy yo'ldoshli diamniotik 22-27 xaftalikgacha bo'lgan davrda tug'ilgan (tana vazni 500-999 gr) egiz homilalar miokard qavatida mushak to'qimasi egallagan maydon  $66,6 \pm 0,91$  ni, mushaklararo shish egallagan maydon ulushi  $19,7 \pm 0,30$  tashkil etadi. 28-31 xaftalikgacha bo'lgan davrda tug'ilgan egiz homilalarda ushbu ko'rsatkichlar  $73,8 \pm 0,66$  va  $25,7 \pm 0,41$  ni tashkil etadi. 32-37 xaftalik muddatda tug'ilgan tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan mushak to'qimasi egallagan maydon  $75,5 \pm 0,53$  ni tashkil qilsa, mushaklararo shish egallagan maydon  $28,2 \pm 0,53$  ni tashkil qiladi. Tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egiz homilalarda mushak to'qimasi ( $76,9 \pm 0,33$ ) va mushaklararo shishi ( $29,1 \pm 0,43$ ) egallagan maydonning ulushida

mushak to'qimasining usutunligi kuzatiladi.

Tug'ilish muddatlari va tana vazniga bog'liq holda kardiomiositlar diometrida farqlar ko'zga tashlanadi, tana vazni kichik bo'lsada bir guruh kardiomiositlarning gipertrofiya holatida ekanligi aniqlanadi. Shu bilan birga, donor egizaklarida surunkali vazokonstruksiya va uning renin-angiotenzin tizimining faollashishi qabul qiluvchi egizakdagi miokard gipertrofiyasi rivojlanishiga olib keladi (Manning N. 2008). Biroq ko'ruv maydonida kichik o'lchamli kardiomiositlar 32-37 xaftalikda tug'ilgan va tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egiz homilalarda uchraydi, biroq bular son jihatdan kamchilikni tashkil etadi.

22-27 xaftagacha muddatda tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik (tana vazni 500-999 gr) bo'lgan egiz homilalar kardiomiositlar diametri  $2,6 \pm 0,05$  mkmga teng, ushbu ko'rsatkichlar 28-31 xaftalikda tug'ilgan egizak (1000-1499 gr) homilalarda  $2,61 \pm 0,05$  mkm ni, 32-37 xaftalikda tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda kardiomiositlarning diametri  $2,88 \pm 0,08$  mkm, tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar kardiomiositlarining diametri  $3,01 \pm 0,06$  mkmga tengdir.

Shunday qilib, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan umumiy yo'ldoshli diamniotik egizaklar tug'ilish muddatlari va tana vazniga bog'liq holda kardiomiositlar diometrida farqlar ko'zga tashlanadi, biroq ko'ruv maydonida kichik o'lchamli kardiomiositlar 32-37 xaftalikda tug'ilgan egizaklar kardiomiositlarining morfometrik ko'rsatkichlari tana vazniga nisbatan biri-biridan farq qiladi.

22-27 xaftalik muddatgacha bo'lgan davrda tug'ilgan umumiy yo'ldoshli diamniotik (vazni 500-999 gr) egiz homilalar intramiokardial qon tomirlari devori egallagan maydon ulushi 33,0 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon 67,0 % ni tashkil etadi, 28-31 xaftalik egizak (tana vazni 1000-1499 gr) homilalarda ushbu ko'rsatkichlar 39/61 % ga tengligi aniqlanadi. 32-37 xaftalik tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egiz homilalarda qon tomir devori egallagan maydoni 41 % ni qon tomir bo'shlig'ini egallagan maydoni 59 % ni, tana vazni 2000-2499 gramm qon tomir devori egallagan maydon 40 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon ulushi 60 % ni tashkil etadi. Intrakmokardial qon tomirlari egallab maydon 76 % ga teng bo'lsa, PVB egallab turgan maydon 24% ni tashkil etadi. 28-31 xftalik muddatda qon tomir

71% maydonni, PVB 29 % ekanligi aniqlanadi. 32-37 xaftalik muddatda tug‘ilgan tana vazni 1500-1999gramm bo‘lgan chaqaloqlar intramiokardial qon tomirlari egallab turgan maydon ulushi 70 % ni, PVB egallagan maydosh ulushi 30 % ni, ushbu muddatlarda tana vazni 2000-2499 gramm bo‘lgan umumiy yo‘ldoshli diamniotik egizaklar intramiokardial qon tomir maydonning ulushi 71% ni, PVB ulushi 29 % ni tashkil etadi.

Shunday qilib, pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan turli muddatlarda tug‘ilgan, umumiy yo‘ldoshli diamniotik tana vazni turlicha bo‘lgan, egizaklarning intramiokardial qon tomirlari va PVB egallagan maydonning morfometrik ko‘rsatkichlari har xil, ko‘pgina holatlarda PVB ni mushaklararo shishi bilan qo‘shilib ketishi uni egallab turgan maydoni biroz kengayishiga olib keladi.

Pnevmpatiyaning atelektatik, tug‘ilish muddatlari va tana vazniga bog‘liq holda kardiomiositlar diametri, qon tomir bo‘shlig‘i va qon tomir devori egallagan maydon ulushini, mushak to‘qimasi va mushaklararo shish nisbati ko‘rsatkichlari o‘zgarib boradi. Perinatal davrda kardiomiositlar sezilarli darajada tarkibiy o‘zgarishlarga uchraydi (Popescu LM, Curici A, Wang E, et al., 2015). Gipoksik-ishemik kelib chiqadigan miokard shikastlanishi antenatal davrda gipoksiya bilan og‘rigan bolalarning 40-70 foizida uchraydi (Shnitkov A.M., Konkina Ye.A., Shnitkova Ye.V.2013). Intramiokardial qon tomirlari va PVB egallagan maydonning morfometrik ko‘rsatkichlari har xil bo‘lib, ko‘pgina holatlarda PVB ni mushaklararo shishi bilan qo‘shilib ketishi uni egallab turgan maydonini biroz kengayishiga olib keladi.

Shunday qilib, umumiy yo‘ldoshga ega bo‘lgan 22-27 xaftalik muddatgacha tug‘ilgan **monoamniotik** (vazni 500-999 gr) egizaklarning miokard qavati mushak tuzilmalaridagi morfologik o‘zgarishlar nisbatan, qon tomir tuzilmalaridagi morfologik o‘zgarishlar sustroq, 32-37 xaftalikda jadal amalga oshadi. Jumladan ushbu muddatda tana vazni 1500-1999 va 2000-2499 gramm egizaklar yuragi miokard tuzilmalaridagi distrofik va nekrotik o‘zgarishlar bir xil jadallik va bir xil ko‘rinishda aks etadi. Shuningdek, miokard qavatidagi distrofik, nekrobiotik va nekrotik o‘zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan morfologik va morfometrik o‘zgarishlar jadal, hamila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklarga nisbatan sustroq namoyon bo‘ladi.

Kardiomiositlar, intramiokardial qon tomir bo‘shlig‘i va qon tomir devori

egallagan maydon ulushining ko'rsatkichlari pnevmopatiyaning atelektatik shakliga, tana vazniga va tug'ilish muddatlariga bog'liq holatda qon tomir devori va bo'shlig'i egallagan maydon ko'rsatkichlari qon tomirlar va PVB egallagan maydonning ulushlari bir biridan farq qiladi. Bundan tashqari nazorat uruhi va homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklarga nisbatan morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarida katta farq va tofovutlar aniqlanadi.

Umumiy yo'ldoshga ega bo'lgan, pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan, 22-27 xaftalik muddatgacha tug'ilgan (tana vazni 500-999 gr) **diamniotik** egizaklarning 28-31 xaftaliklarda (tana vazni 1000-1499 gr) va 32-37 xaftalik tana vazni 1500-1999 va 2000-2499 gramm bo'lgan egizak homilalarning miokard tuzilmalaridagi nekrobiotik va nekrotik o'zgarishlar nisbatan ertaroq rivojlanadi. Tug'ilish muddatining 32-37 xaftaligida nisbatan vazni har xil bo'lgan egizaklar yuragi miokarda qavati tuzilmalaridagi nekrobiotik va nekrotik o'zgarishlar deyarli bir xilda ko'rinishda nomoyon bo'ladi. Biroq, nazorat guruhi va homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklar yuragi miokard tuzilmalaridagi xuddi shunday o'zgarishlardan ancha farq qiladi.

Pnevmopatiyaning atelektatik, tug'ilish muddatlari va tana vazniga bog'liq holda kardiomiositlar diametri, qon tomir bo'shlig'i va qon tomir devori egallagan maydon ulushini, mushak to'qimasi va mushaklararo shish nisbati ko'rsatkichlari o'zgarib boradi. Intramiokardial qon tomirlari va PVB egallagan maydonning morfometrik ko'rsatkichlari har xil bo'lib, ko'pgina holatlarda PVB ni mushaklararo shishi bilan qo'shilib ketishi uni egallab turgan maydonning biroz kengayishiga olib keladi. Nazorat guruhiga nisbatan pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan egizaklarda PVB 1,2 barobar ko'proqni, homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklarga nisbatan, 1, 0 barobar kamroqni tashkil etadi.

Alohida yo'ldoshli *monoamniotik* turli muddatlarda tug'ilgan tana vazni 500-999 grbo'lgan egiz homilalarning tug'ilish muddatlarining barchasida miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar, jadalroq amalga oshadi. Tana vazni 1000-1499 gramm va tana vazni 1500-1999va 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda sustroq, ammo yaqqol ko'zga tashlanadi. Kardiomiositlarda nekrobiotik o'zgarishlar ustunligi

fonida nekrotik o'zgarishlar rivojlanadi. Mushaklararo shishning PVB bilan qo'shilib ketishi kuzatiladi. Qon tomir bo'shlig'idai ertirositlarda agregatsiya va gemoliz hamda devorida deskvamatsiya jaryoni kuzatiladi.

Alohida yo'ldoshli *monoamniotik* turli muddatlarda tug'ilgan tana vazni 500-999 gr bo'lgan egiz homilalarning tug'ilish muddatlarining barchasida miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar, jadalroq amalga oshadi. Tana vazni 1000-1499 gramm va tana vazni 1500-1999va 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda sustroq, ammo yaqqol ko'zga tashlanadi. Kardiomiositlarda nekrobiotik o'zgarishlar ustunligi fonida nekrotik o'zgarishlar rivojlanadi. Kardiomiositlardagi distrofik o'zgarishlarning rivojlanishi arterial qon orqali kislorod bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq (Kuruvilla S, Balakrishnan K, Parvathy U. 2004). Mushaklararo shishning PVB bilan qo'shilib ketishi kuzatiladi. Qon tomir bo'shlig'idai ertirositlarda agregatsiya va gemoliz hamda devorida deskvamatsiya jaryoni kuzatiladi.

Alohida yo'ldoshga ega bo'lgan, diamniotik 22-27 xaftalik muddatda tug'ilgan tana vazni 500-999 grbo'lgan egiz homilalarning kardiomiositlaridagi morfometrik ko'rsatkichlari  $2,3 \pm 0,04$  mkmga, 28-31 xaftalikda (tana vazni 1000-1499 g) tug'ilgan egizak homilalarda  $2,67 \pm 0,04$  mkmga, 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda kardiomiositlar diametri  $2,86 \pm 0,07$  mkmga, ushbu muddatda tug'ilgan tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda  $3,01 \pm 0,06$  mkmga tengdir.

Shunday qilib, tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan alohida yo'ldoshli *monoamniotik* egizaklar kardiomiositlaridagi morfometrik ko'rsatkichlar tana vazni 500-1000 va 1000-1499 gramm bo'lganlardan keskin farq bilan, tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklar kardiomiositlaridagi morfometrik ko'rsatkichlardan kam miqdordagi farq bilan ajralib turadi.

Alohida yo'ldoshga ega 22-27 xaftalik bo'lgan muddatda tug'ilgantana (tana vazni 500-999 gr) *monoamniotik* egiz homilalarning intramiokardial qon tomirlari devorining egallagan maydoni 36,0 % ni, bo'shlig'i egallagan maydon 64,0 % ni, 28-31 xaftalikda (vazni 1000-1499 gr) tug'ilgan egiz homilalarda ushbu ko'rsatkichlar 40/60 % ni, 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda 42/58 % ni, ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lib tug'ilgan egizaklarda qon tomir devori egallagan maydon ulushi 48 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon ulushi

52 % ni tashkil etadi.

22-27 xaftalik muddatigacha pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tugʻilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan (tana vazni 500-999 gr) alohida yoʻldoshga ega monoamniotik egizaklar miokard qavatidagi intrakmiokardial qon tomirlari egallagan maydon ulushi 72% ga teng boʻlsa, PVB egallagan maydon ulushi 28% ni tashkil etadi. 28-31 xaftalikgacha muddalarda tugʻilgan egiz homilalarda qon tomir ulushi 71 % ni, PVB 29% maydonni egallaydi. 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999gramm boʻlib tugʻilgan egizaklarda qon tomir egallagan maydoni 70 % ni, PVB egallagan maydoni 30 % ni, ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm boʻlib tugʻilgan egizaklarda qon tomir maydonni 71 % ni, PVB 29% ni egallaganligi qayd etiladi. Yangi tugʻilgan chaqaloqlarda plasentar yetishmovchilik boʻlga boʻlsa ularning barchasida intramiokardial qon tomirlarida perivaskulyar shish va endoteliyning boʻkishi va deskvamatsiya holati kuzatiladi (Shnitkov A.M., Konkina Ye.A. i Shnitkova Ye.V., 2013).

Shunday qilib, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan alohida yoʻldoshga ega monoamniotik egiz homilalarda qon tomir va perivaskulyar boʻshliq egallagan maydonlarning nisbati tugʻilish muddati va tana vazniga bogʻliq holda oʻzgarib boradi. Turli muddatlarda tugʻilgan alohida yoʻldoshli monoamniotik egiz homilalar yuragining hajmiga bogʻliq holda miokard qavatining intramiokardial qon tomirlari va PVB egallagan maydoning ulushlari tugʻilish muddatlariga paralel ravishda ortib boradi.

Tana vazni 500-999 gr boʻlgan alohida yoʻldoshli *diamniotik* egizaklarda, kardiomyositlardagi patomorfologik oʻzgarishlar mushaklararo shish bilan paralel ravishda sodir boʻladi, Tana vazni katta 1000-1499 gramm boʻlgan egizaklarda nekrobiotik oʻzgarishlar jadallik bilan nekrotik oʻzgarishlar bilan almashinadi. Tana vazni 1500-1999va 2000-2499 gramm boʻlgan egizaklarda pamorfologik oʻzgarishlar paralel ravishda rivojlanishi qayd etiladi. Tugʻilish muddatiga mos ravishda PVB bir, ikki va har tomonlama tomonlama kengayadi. Qon tomirlar boʻshligʻida eritrositlar agregatsiyasi, gemolizi va plazmaning koaglyasiyasi kuzatiladi. Deskvamatsiya jarayoni rivojlanadi.

Alohida yoʻldoshli diamniotik 22-27 xaftalikgacha boʻlgan davrda

pnevmpatiyaning atelektatik shakli bilan tugʻilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan tana vazni 500-999 gr boʻlgan egizaklarning miokard qavatida koʻruv maydonida mushak toʻqimasi egallagan maydon koʻrsatkichlari  $68,2 \pm 0,1,5$ , mushaklararo shish egallagan maydon koʻrsatkichlari  $21, \pm 0,64$ , 28-31 xaftalikgacha boʻlgan davrda tugʻilgan (tana vazni 1000-1499 g) egizaklarda ushbu koʻrsatkichlar  $75,1 \pm 0,64$  va  $27,2 \pm 0,40$  ekanligi aniqlanadi. 32-37 xaftalik muddatda tana vazni 1500-1999 gramm boʻlib tugʻilib turli muddatlarda yashab vafot etgan egizaklarda mushak toʻqimasi egallagan maydon ulushi  $76,4 \pm 0,29$ , mushaklararo shish egallagan maydon ulushi  $30,1 \pm 0,78$  ekanligi qayd etiladi. Ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm boʻlib tugʻilgan egizaklar miokard qavati mushak toʻqimasi va mushaklararo shish ( $77,6 \pm 0,48$  /  $30,1 \pm 0,66$ ) egallalab turgan maydonning ulushi hisobida mushak toʻqimasining usutunligi qayd etiladi.

Shunday qilib, pnevmpatiyaning atelektatik shakli bilan tugʻilib vafot etgan egizaklarning tugʻilish va yashash muddati turlicha boʻlgan, alohida yoʻldoshga ega monoamniotik egizak homilalar yuragi miokard qavatidagi intramiokardial qon tomirlar boʻshligʻi va devorining oʻzaro nisbati tugʻilish va ularning yashagan muddatlariga mos ravishda ortib boradi.

22-27 xaftalik muddatda pnevmpatiyaning atelektatik shakli bilan tugʻilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan alohida yoʻldoshli tana vazni 500-999 gr boʻlgan diamniotik egiz homilalarning kardiomiositlarining koʻrsatkichlari  $2,39 \pm 0,05$  mkmga, 28-31 xaftalikda  $2,71 \pm 0,03$  mkmga 32-37 xaftalikda tana vazni 1500-1999 gramm boʻlgan egizaklarda  $2,96 \pm 0,06$  mkmga ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm boʻlgan egizaklarda  $3,16 \pm 0,09$  mkmga teng ekanligi aniqlanadi. Miofibrillalar gipoksiya taʼsirida miositoliz holati qayd etiladi, kardiomiositlar yadrosi deformatsiyalashadi va hujayra ichi shishi qayd etiladi (Shnitkov A.M., Konkina Ye.A. i Shnitkova Ye.V., 2013). Shunday qilib, tugʻilish muddatlariga bogʻliq holatda kardiomiositlarning diametri oshib boradi. Egizaklarning tana vazniga bogʻliq holda kardiomiositlar diametri muddatlar kesimida bir biridan farqlanadi.

22-27 xaftalik muddatda pnevmpatiyaning atelektatik shakli bilan tugʻilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan alohida yoʻldoshga ega diamniotik tana vazni 500-999 gr boʻlgan egizak homilalar yuragi miokard qavatining intramiokardial qon tomirlari

devorining ulushi 39 % ni, qon tomir bo'shlig'i egallagan maydon 61 % ni, 28-31 xaftalikda 37/63 % ni, 32-37 xaftalikda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tana vazni 1500-1999gramm bo'lib tug'ilgan egizaklarda ushbu ko'rsatkichlar 45/55 % ni, ushbu muddatda tana vazni 2000-2499 gramm bo'lib tug'ilgan egizaklarda 41 % / 59 % ni tashkil etadi.

Shunday qilib, turli muddatlarda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilib, turli muddatlarda yashab vafot etgan, alohida yo'ldoshga zga monoamniotik egizak homilalar yuragi miokard qavatidagi intramiokardial qon tomirlar bo'shlig'i va devorining o'zaro nisbati tug'ilish muddatlariga mos ravishda ortib boradi. Tana vazni bo'yicha esa, morfometrik ko'rsatkichlari barcha tug'ilish muddatlarida bir biridan farqlanadi.

22-27 xaftalik muddatda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan alohida yo'ldosh ega diamniotik tana vazni 500-999 gr bo'lgan egizak homilalar intrakmiokardial qon tomirlari egallab maydon 25 % ga teng bo'lsa, PVB egallab turgan maydon 75 % ni tashkil etadi. 28-31 xaftalik muddatda bu morfometrik ko'rsatkichlar 29 % /71 % , 32-37 xaftalik muddatda tana vazni 1500-1999gramm bo'lgan egizaklarda 28/72 %, tana vazni 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda 29 % / 71 % ni tashkil etishi qayd etiladi.

Demak, homiladorlikning har xil muddatlarda tug'ilib, pnevmopatiyaning atelektatik shakli rivojlangan alohida-alohida yo'ldoshlarga va alohida-alohida xarion parda ega (diamniotik) egiz homilalar miokard qavati (intramiokardial) qon tomirlari va PVB ulushi egizak homilalarning tug'ilish muddatiga mos holatda oshib borishi qayd etiladi. Biroq, egizaklarning tana vazni bo'yicha qon tomir egallagan maydon va PVB egallagan maydon o'rtasida nisbat bir biridan farq qiladi.

Alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklarda ushbu ko'rsatkichlar nazorat guruhidagi ko'rsatkichlarga yaqin bo'lishi kuzatiladi. Alohida yo'ldoshli *monoamniotik* turli muddatlarda tug'ilgan tana vazni 500-999 gr bo'lgan egiz homilalarning tug'ilish muddatlarining barchasida miokard qavati tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar, jadalroq amalga oshadi. Tana vazni 1000-1499 gramm va tana vazni 1500-1999va 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda sustroq, ammo yaqqol ko'zga tashlanadi. Kardiomyositlarda nekrobiotik o'zgarishlar ustunligi fonida nekrotik o'zgarishlar

rivojlanadi. Mushaklararo shishning PVB bilan qo'shilib ketishi kuzatiladi. Qon tomir bo'shlig'idai ertirositlarda agregatsiya va gemoliz hamda devorida deskvamatsiya jaryoni kuzatiladi.

Tana vazni 500-1000 gramm bo'lgan alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklarda, kardiomiositlardagi patomorfologik o'zgarishlar mushaklararo shish bilan paralel ravishda sodir bo'ladi, Tana vazni katta 1000-1499 gramm bo'lgan egizaklarda nekrobiotik o'zgarishlar jadallik bilan nekrotik o'zgarishlar bilan almashinadi. Tana vazni 1500-1999va 2000-2499 gramm bo'lgan egizaklarda pamorfologik o'zgarishlar paralel ravishda rivojlanishi qayd etiladi. Tug'ilish muddatiga mos ravishda PVB bir, ikki va har tomonlama tomonlama kengayadi. Qon tomirlar bo'shlig'ida ertrositar agregatsiyasi, gemolizi va plazmaning koaglyasiyasi kuzatiladi. Deskvamatsiya jarayoni rivojlanadi.

Alohida yo'ldoshli diamniotik egizaklarda mushak to'qimasi va mushaklararo egallagan maydon hajmi, qon tomirlar bo'shlig'i va devorining o'zaro nisbati, qon tomirlari va PVB egallagan maydon, kardiomiositlarning diametri tug'ilishi muddatlariga mos ravishda ortib boradi. Biroq, tana vazni bo'yicha miokard tuzilmalarining barcha morfometrik ko'rsatkichlari bir-biridan farqlanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalarini nazorat guruhi va homila ichi infeksiyasidan va pnevompatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan alohida yo'ldoshli mono va diamniotik egizaklar miokard tuzilmalaridagi morfometrik o'zgarishlar o'rtasida katta farqlar ko'zga tashlanadi.

## **Xulosalar**

1. Pnevmpatiyaning atelektatik shakli bilan erta tugʻilib vafot etgan umumiy va alohida-alohida yoʻldoshli (monoamniotik va diamniotik) egizak homilalar yuragining miokard qavati mushak va qon tomir tuzilmalaridagi morfologik oʻzgarishlarining morfometrik koʻrsatkichlari turlicha boʻlib, morfologik jihatdan nekrobiotik va nekrotik oʻzgarishlar tugʻilishning kechki muddatlarida yaqqol namoyon boʻldi. Ishemik oʻzgarishlar qon tomirlarga nisbatan kardiomiositlarda koʻproq kuzatildi. Mazkur oʻzgarishlar nazorat guruhiga nisbatan, kuchli, homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklarga nisbatan sust namoyon boʻladi.
2. Pnevmpatiyaning atelektatik shaklida miokard tuzilmalarining rivojlanish darajasi homiladorlikning erta va kech muddatlarida oʻzgarishsiz qoldi. Homiladorlik muddatlari oshgan sari kardiomiositlarning morfologik morfometrik oʻlchamlari yurak hajmiga mos ravishda ortib bordi. Biroq ularning oraliqlarida sitoliz holatidagi va bujmaygan kardiomiositlar koʻpchilikni tashkil etdi. Intramiokardial qon tomirlarda perivaskulyar boʻshliq kengayishi kuzatildi. Qon tomir strukturasidagi ishemik oʻzgarishlar yurak hajmi nisbatan kichik boʻlgan egizaklarda kuchli namoyon boʻladi. Ushbu oʻzgarishlar homila ichi infeksiyasidan vafot etgan egizaklarda yanada kuchliroq namoyon boʻlishi kuzatiladi.
3. Umumiy va alohida yoʻldoshli monoamniotik egizaklar yuragining miokard qavatida joylashgan intramiokardial qon tomirlar devori egallagan maydonga nisbatan, qon tomir boʻshligʻi egallagan maydon yurak hajmidan qatʼiy nazar katta oʻlchamni tashkil etadi. Qon tomir egallagan maydon ulushi umumiy yoʻldoshli diamniotik egizaklarga nisbatan alohida yoʻldoshli diamniotik egizaklarda katta, qon tomir boʻshligʻi egallagan maydoni kichik oʻlchamni tashkil etadi.
4. Umumiy va alohida yoʻldoshli egizaklarda pnevmpatiyaning atelektatik shakli tanatogenezida turli muddatlarda tugʻilganlikni baholash mezonlari sifatida kardiomiositlar hajmi, mushaklararo shish, qon tomir va devori egallagan maydon, perivaskulyar boʻshliqlar kengayish nisbatidan foydalanish mumkin, chunki ularning oʻlchamlari farqli ravishda ortadi. Kardiomiositlar hamda qon tomirlaridagi destruktiv buzilishlar dinamikasi yurak hajmini baholashning qoʻshimcha koʻrsatkichlari hisoblanadi.

## **Amaliy tavsiyalar**

1. Tadqiqot natijalaridan foydalanish tibbiyot oliygohlari talabalari, patologik anatomiy yo'nalishida tahsil olayotgan magistr va klinik ordinatorlari uchun fundamental fanlar negizida o'zlashtirgan bilimlariga qo'shimcha ravishda pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan egizaklar yuragi miokard qavati tuzilmalaridagi patomorfologik o'zgarishlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lishadi.

2. Patologik anatomiya va gistologik laboratoriyalarda qo'llanilgan morfologik va morfometrik usullar vrach patologoanatom, patogistolog, morfologlar va gistolaborantlarning amaliy ishlarida yordamchi adabiyot sifatida qo'llash, vrach patologantomlar amaliyotida yuqorida keltirilgan makroskopik va mikroskopik usullarni qo'llash, pnevmopatiyaning atelektatik shaklidan vafot etgan umumiy va alohida yo'ldoshli egizaklar yuragi miokard qavatidagi tuzilmalaridagi o'zgarishlarni aniqlashdagi xatoliklarni kamaytirishga yordam berishi mumkin.

3. Davolovchi neonatolog shifokorlar pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan umumiy va alohida yo'djoshdi egizaklar yuragi miokard tuzilmalaridagi o'zgarishlarni patomorfologik tekshiruvlar natijalaridan foydalanishi davolash chora-tadbirlarini to'g'ri tanlash va pnevmopatiyaning atelektatik shakli bilan tug'ilgan egizaklar yuragi miokard qavati qanday o'zgarishlar kelib chiqishi to'g'risidagi bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abramova S.V., Bloxina Ye.N., Murashova Ye.M., Paramonova T.K. Chastota mnogoplodnoy beremennosti posle programmi EKO // ISSN 2409-563X. MEDICUS.

2018. № 3 (21).

2. Abramchenko V. V., Gromiko G. L., Boyko I. N. Metabolicheskaya terapiya pri beremennosti i v rodax. SPb. - M.; 2009. 159.
3. Abramyan M.A., Gladkova K.A., Kostyukov K.V., Tetrushvili N.K. Endoskopicheskiye fetal'niye xirurgicheskiye operatsii: perspektivi razvitiya // Akusherstvo i ginekologiya. - 2013. - № 12. - S. 22-27.
4. Axtamova N. A, Ernazarova M. Sh. "Mnogoplodnaya beremennost i mnogovodiye (kratkiy obzor)" Byulleten studentov novogo Uzbekistana, вып. 3, №. 1, 2025, S. 9-13. doi:10.5281/zenodo.1463610
5. Aktual'nyeprobleminevinashivaniya beremennosti. Siki klinicheskix leksiy. Sidel'nikova V. M. (red.). M.; 2001. 170.
6. Akusherstvo ot desyati uchiteley. Kempbell S., Liz K. (red). 17-ye izd. M.: Medisinskoyeinformatsionnoye agentstvo; 2004. 464.
7. Andreyeva T. V. Obsledovaniye konechnogo respiratornogo trakta dlya opredeleniya sootvetstviya lyogkix sroku gestasii v perinatal'nom periode. Norma. Arx. patologii 1994; 56 (2):S. 69-73.
8. Arias F. Beremennost' i rodi visokogo riska. M.: Medisina; 1989. 656 c.
9. Baranov I.I., Tokova Z.Z., Tadevosyan A.A. Perinatal'niye isxodi pri mnogoplodnix rodax // Akusherstvo i ginekologiya. 2012. № 1. S. 98-102.
10. Barinov S.V., Rogova Ye.V., Dolgix T.I., Kadsina T.V. Osobennosti techeniya mnogoplodnoy beremennosti v so-chetanii s trombofiliyami. Mat' i ditya v Kuzbasse. 2014;2(57): S.39–42.
11. Bashmakova N.V., Aytov A.Ye., Kosovsova N.V., Chistyakova G.N., Remizova I.I. "Osenka effektivnosti fetoskopicheskoy lazernoy koagulyasiiplasentarnix anastomozov u jenshin, beremennix monoxorial'noy diamnioticheskoy dvoyney" Doktor.Ru, vipusk. 20, №. 1, 2021, -S. 33-37.
12. Bashmakova N.V., Kosovsova N.V., Mal'gina G.B., Pavlichenko M.V. Korrektsiya patologii ploda metodami vnutritrobnoy xirurgii // Vestnik Roszdravnadzora. - 2016. - № 3. - S. 19-26.
13. Bashmakova N.V., Aytov A.Ye., Chistyakova N.V., Kosovseva N.V., Markova T.V., Remizova I.I. Differentsial'naya diagnostika oslojneniy monoxorial'noy

- mnogoplodnoy beremennosti // Problemy reprodukcii. 2017. T. 23, Vip. 4. -S. 114-120.
14. Bashmakova N.V., Kosovsova N.V., Markova T.V., Siv'yan P.B., Potapov N.N. Monoxorial'nayaberemennost'. Preodoleniye problem diagnostiki i lecheniya: Monografiya. M.: Sed'moy Legion. 2014; -S. 35-55.
15. Beloserkovseva L.D., Kovalenko L.V., Mordovina I.I. Aktual'nyeproblemisamostoyatel'noy i indusirovannoy mnogoplodnoy beremennosti // Sever Rossii: strategii i perspektivi razvitiya: materialy III Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. Surgut, 2017. S. 21-26.
16. Bugerenko A.Ye., Kurser M.A., Suxanova D.I., Sichinava L.G. Sindrom fetofetal'noy transfuzii. Fetoskopicheskaya lazernayakoagulyasiya anastomozov // Akusherstvo i ginekologiya. - 2013. - № 10. - S. 40-45.
17. Bugerenko A.Ye., Suxanova D.I., Donchenko Ya.S. i dr. Angioarhitektonikaplasenti pri sindrome fetofetal'noy transfuzii u beremennix s monoxorial'noy dvoynoy. Perinatal'niye isxodi // Akusherstvo i ginekologiya. - 2019. - № 5. - S. 63-69.
18. Bugerenko A.Ye., Kunyax J.Yu., Panina O.B., Mirakyan Yu.S. Otdalenniyerezul'tati razvitiya detey iz monoxorial'nix dvoyn, rodivshixsya posle lazernoy koagulyasiifetofetal'nix anastomozov// Voprosy prakticheskoy pediatrii. Tom №15, №5.-2020 –S.52-56
19. Bugerenko A.Ye., Vixristyuk Yu.V., Povarova A.A., Sichinava L.G. Osobennosti rosta plodov pri monoxorial'noy dvoynoy // Vestnik RGMU. - 2011. - T. 1. - S. 2-15.
20. Bugerenko A.Ye., Vixristyuk Yu.V., Povarova A.A., Sichinava L.G. Osobennosti rosta plodov pri monoxorial'noy dvoynoy // Vestnik RGMU. - 2011. - (2).
21. Viktor V. X. Respiratorniye rasstroystva u novorodjdyonnix. M.: Medisina; 1989.
22. Visaitova M.B. Tehenkiye beremennosti i rodov, perinatal'niyeisxodi pri dvoynoy: avtoref. dis. ... kand. med. nauk. - M., 2009. -24s.
23. Ginekologiya :nasional'noye rukovodstvo. 2-ye izd. / pod red. G.M. Savel'yevoy, G.T. Suxix, V.N. Serova, I.B. Manuxina, V.Ye. Radzin-skogo. M. : GEOTAR-Media, 2017. 1048 s.
24. Dobroxotova Yu.Ye., Kozlov P.V., Kuznesov P.A., Djoxadze L.S. Dissosirovanniy rost plodov pri dvoynoy. Ser'yez'naya patologiya ili variant normi?

// Akusherstva i ginekologiya.-2016.-№1.-S. 5-9

25. Duda V. I., Duda Vl. I., Duda I. V. Akusherstvo. Minsk: Visheyshaya shkola; 2004. 638.

26. Yegorova A.T., Ruppel' N.I., Maisyenko D.A., Bazina M.I. 2014. Kompleksnaya osenkasosial'-nogo, reproduktivnogo i somaticheskogo anamnezov beremennix pri indusirovannom mnogoplodii. Rossiyskiy vestnik akushera-ginekologa. 4: 69 - 73.

27. Jarova A.A. 2011. Sostoyaniye fetoplasentarnogo kompleksa i perinatal'niye isxodi pri mnogoplodnoy beremennosti: avtoref. dis... kand. med. nauk. Moskva, 24 s.

28. Kalashnikov S.A., Sichinava L.G., Savinova A.A. Perinatal'niye isxodi pri monoxorial'noy dvoynе // Voprosi ginekologii, akusherstva i perinatologii. 2008. T. 7, Vip. 6. S. 41-46.

29. Kalashnikov S. A., Sichinava L. G., Savinova A. A. Perinatal'niye isxodi pri monoxorial'noy dvoynе. Vopr. ginekol., akush., perinatol. 2008; 7 (6): 41-45.

30. Kalashnikov S.A. Beremennost', rodi i perinatal'niye isxodi u pasiyyentok s mnogoplodiyem posle vspomogatel'nix reproduktivnix texnologiy: avtoref... dis. d-ra med.nauk.-M., 2023.-47s.

31. Kasimova O.V. Gryashenko V.N., Gundareva O.S. Monoxorial'niye dvoyni: kak snizit' perinatal'niye poteri? // Prenatal'naya diagnostika. 2016. Tom 15, Vip. 3. S. 227-231.

